**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**Fakultet** Servis va turizm

**Kafedra** Xalqaro turizm va turizm servisi

**«Himoyaga tavsiya etildi»**
Kafedra mudiri,
i.f.n. R.S.Amriddinova
_______________
Bayonnoma № 11 15 iyun 2015 y.

**5610300 - Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha)**
***ta’lim yo‘nalishi***

**TFT-111 guruh talabasi Nabiyeva Dilafruz Baxtiyorovnaning “O‘zbekiston Havo Yo‘llari milliy aviakompaniyasining mintaqaviy turizmni rivojlantirishda tutgan o‘rni” mavzusidagi**

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy maslahatchi:** i.f.n.Ibadullayev N.E.
**Ilmiy rahbar:** ass. Abiyev J.

**SAMARQAND – 2015**

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| | **KIRISH……………………………………………………….** | **2** |
| **I-Bob.** | **Turizmda transport xizmatlarini tashkil qilishning nazariy asoslari…………………………………………………………** | **4** |
| **1.1** | Turistlarga transport xizmatlarini tashkil etishning mohiyati va ahamiyati…………………………………………………........... | **4** |
| **1.2** | Turizmda transport xizmatlarining tasniflanishi……………… | **6** |
| **1.3** | Turistlarga transportda xizmat ko'rsatishning huquqiy asoslari………………………………………………………. | **17** |
| **II- BOB** | **O'zbekiston Respublikasida turistlarga havo transportida xizmat ko'rsatish…………………………………………….** | **23** |
| **2.1** | "O'zbekiston Havo Yo'llari" MAKning mintaqaviy turizmni rivojlantirishdagi o'rni……………………………………… | **23** |
| **2.2** | "O'zbekiston Havo Yo'llari" MAK ning hamkorlik aloqalari……………………………………………………….. | **34** |
| **III-BOB** | **Turistlarga havo transportida xizmat ko'rsatishning xorij tajribalari…………………………………………………..** | **42** |
| **3.1** | Xitoy havo transporti orqali turistlarga xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari……………………………………….. | **42** |
| **3.2** | Turizmda turistlarning xavfsizligini ta'minlashning huquqiy me'yorlari. ……………………………………………………. | **47** |
| | **Xulosa…………………………………………………….** | **59** |
| | **Takliflar………………………………………………….** | **61** |
| | **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati………………………** | **62** |

## KIRISH

Mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishida aholiga xizmat ko‘rsatuvchi sohalarning o‘rni va roli g‘oyat sezilarli bo‘lib, bunda turizmning ahamiyati boshqa xizmat ko‘rsatish sohalariga qaraganda yuqori sur’atlar darajasida rivojlanishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarga katta e’tibor berilib, uning turistik salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llari shakllanmoqda.

Turizmning ommaviy uyushgan holdagi shakli kengayib, turistlarga xizmat ko‘rsatish sifati va ularga xizmat ko‘rsatuvchi turistik korxonalar soni yildan - yilga ortib bormoqda. Turistlarni marshrutlarda tashish, transfer xizmatlarini ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega.

Yo‘lovchilarni, shu jumladan turistlarni tashish turli transport vositalari yordamida, chunonchi: havo, yer usti, suv va mahalliy transportida amalga oshiriladi. Turistlarni tashish uchun transport turlarining ommaviyligi yoki talab etilish darajasi mamlakatning jug‘rofiy o‘rni va iqlim sharoitlariga, iqtisodiy rivojlanish darajasiga, milliy an’analariga1 [1], odamlarning ijtimoiy holati va turmush darajasiga hamda boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Har bir transport turining o‘z ustun jihatlari va kamchiliklari mavjud bo‘lib, ular tarixiy rivojlanish, texnik, iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi. Shu sababli xorijiy sayyohlarni tashishda jumladan O‘zbekiston Respublikasi sharoitida avtomobil transporti, temir yo‘l transporti va eng asosiysi havo (aviatsiya) transporti xizmatini ko‘rsatish sohalarini o‘rganish, ularni holatini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Aynan shu masalalar bitiruv malakaviy **ishning dolzarbligini** belgilaydi.

[1] Mamatqulov X.M. «Turizm infratuzilmasi» Ma’ruzalar kursi. SamISI. 2009., Xoshimov M.A. «Turistlarga transport xizmati ko‘rsatishni tashkil qilish» O‘quv-uslubiy majmua. Samarqand. SamISI. 2011 yil.

Bitiruv malakaviy **ishning maqsadi** iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida turizmda havo transporti xizmatlarining mazmuni va mohiyatini o‘rganish hamda rivojlantirishning yo‘nalishlari bo‘yicha nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning **ob’ekti** “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” MAK.

Bitiruv malakaviy ishning **predmeti** iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida turistlarga havo transporti xizmatlari ko‘rsatishni rivojlantirishning yo‘nalishlari bo‘yicha nazariy va amaliy asoslari bilan bog‘liq ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar tizimidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadidan kelib chiqqan holad quyidagi **vazifalar** belgilab olingan**:**

- Turistlarga transport xizmatlarini tashkil etishning mohiyati va ahamiyati, turizmda transport xizmatlarining tasniflanishi;
- Turistlarga transportda xizmat ko‘rsatishning me’yoriy asoslari;
- “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” MAKning mintaqaviy turizmni rivojlantirishdagi o‘rni;
- “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” MAK ning hamkorlik aloqalari;
- Turistlarga havo transportida xizmat ko‘rsatishning xorij tajribalari.

Bitiruv malakaviy ishining **amaliy ahamiyati** O‘zbekiston Havo Yo‘llari milliy aviakompaniyasining mintaqaviy turizmni rivojlantirishdan olingan natijalar asosida turistik korxonalar rahbariyati uchun tavsiyalar va ko‘rsatmalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi: kirish, uchta bob, xulosalar, tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishda 2 ta jadval, 17 ta rasm, 20 ta adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi. Ishning jami 62 bet bo‘lib komp’yuterda sahifalandi.

# I-Bob. Turizmda transport xizmatlarini tashkil qilishning nazariy asoslari.

## 1.1.Turistlarga transport xizmatlarini tashkil etishning mohiyati va ahamiyati.

Hozirgi vaqtga kelib turizm halq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri (neft sanoati va avtomobilsozlikdan keyin) bo‘lib qoldi. Ba’zi davlatlar byudjetining asosiy (50% dan yuqori) qismini turizmdan keladigan daromad tashkil qilib, davlat iqtisodiyotini yuqori pog‘onaga ko‘tarishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, O‘zbekistonda ham turizmni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda 1999 yil 15 aprelda «O‘zbekistonda 2005 yilgacha bo‘lgan davrda turizmni rivojlantirish davlat dasturi[2]» qabul qilingan.

Turistlarga transport xizmatini ko‘rsatish turizm industriyasining eng asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. 1990 yillargacha ichki, halqaro turizmga xizmat qiluvchi avtomobil, daryo, dengiz, temir yo‘l va aviatsiya transportini o‘z ichiga oluvchi yagona transport tizimi mavjud edi. Barcha turistik xizmatlar tuzilishidagi transport xizmati hissasining 40%dan ortiqqismini tashkilqilar edi. Transport sayohatlari turizmning mustaqil ko‘rinishi sifatida qaraladi.

Transport sayohati turli xil transport vositalaridan foydalanib, ishlab chiqilgan yo‘nalishlar bo‘yicha turistlar guruhlarining sayohatidir.

Transport sayohatlari harakatlanish yo‘nalish(marshrut)i, foydalanilayotgan transport turi, yo‘nalish trassasining qurilishi, sayohatning muddati, mavsumiylik va boshqalar bo‘yicha tasniflanadi.

Mobil transporti turi sifatida avtobus va yengil avtomobildan mustaqil yo‘nalishlardagi kabi turistlarni aeroport (vokzal)dan mehmonxonaga yoki aksincha, olib borib quyishda keng foydalaniladi. Harqanday turist o‘z sayohatini rejalashtirayotganda manzilga yetib olish (yetkazish) tezligi, sayohatqulayligi

---

[2] Tuxliyev I.S. Turizm asoslari. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand.: SamISI, 2008 y., Xoshimov M.A. «Turistlarga transport xizmati ko‘rsatishni tashkil qilish» O‘quv-uslubiy majmua. Samarqand. SamISI. 2011 yil.

(komforti), qiymati, yuklarini olib borish (ularning og‘irligini hisobga olgan holda) imkoniyati; to‘xtash[3] joylari, ovqatlanish sharoitlari, shovqin darajasi, vibratsiya, dam olish va (tunash) uxlash jarayonlari, ekologik va albatta xavfsizlik kabi omillarni hisobga oladi. Ijobiy omillar qancha ko‘p bo‘lsa, shunchalik transport sayohatining qiymati oshadi. Havo transportida sayohat ham charter, ham reysli samolyotlar vositasida amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda havo transportidan foydalanishda 1000 dan ortiq aviakompaniyalar faoliyat olib bormoqda. O‘zbekistonlik sayyohlar TU-134, IL-62, «Boing», AN-24, AN-16 samolyotlaridan foydalanadilar. Turizm rivojlangan davlatlarda turistik maqsadlarda vertolyotlardan va boshqa havotransporti vositalaridan: dirijabl, havosharlari, paraplanlar, deltaplanlar va xokozolardan foydalaniladi. Samolyotdagi komfort sharoitlar, ovqatlanish va boshqa omillariga ko‘ra joylar quyidagi sinflarga bo‘linadi: birinchisinf (F), biznes sinf, iqtisodiy sinf (U), boshqalar.

Turistik maqsadda havo yo‘llari orqali amalga oshiriladigan sayyohatlar muntazam, mavsumiy va bir martalik ko‘rinishlarda amalga oshiriladi. Milliy yoki alohida aviakompaniyalarda turli xil ko‘rinishdagi imtiyozlar joriy etilgan: ya’ni mavsumiy, korporativ, bolali yo‘lovchilar, guruhlar, yosh oilalar va boshqalar uchun.

Yo‘lovchilarni, shu jumladan, turistlarni tashish har xil transport turlarida, chunonchi, havo, yer usti, suv transportida amalga oshiriladi. Turistik tashuvlar uchun transport turlarining ommaviyligi yoki talab etilish darajasi mamlakatning jo‘g‘rofiy o‘rni va iqlim sharoitlariga, iqtisodiy rivojlanish darajasiga, milliy an’analariga, odamlarning ijtimoiy holati va turmush darajasiga hamda boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Har bir transport turining o‘z ustun jihatlari va kamchiliklari mavjud bo‘lib, ular tarixiy rivojlanish, texnik, iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi, ammo transport tizimlarining barcha turlari bir asosiy maqsadni — tashish xizmatlarini ko‘rsatishda sayohatchilarning

[3] Tuxliyev I.S. Turizm asoslari. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand.: SamISI, 2008 y.,

ehtiyojlarini to‘laqonli qondirishni ko‘zlaydi. Shundan kelib chiqib, turistlarga transport xizmatlari ko‘rsatishni turistlarni va ularning yuklarini bir joydan ikkinchi joyga mumkin qadar tez va qulay sharoitlarda tashish uchun mo‘ljallangan xizmatlar majmui deb ta’riflash mumkin.

## 1.2.Turizmda transport xizmatlarining tasniflanishi.

Transport vositasi turistik infratuzilmaning muhim elementi hisoblanadi va turistik mahsulotlar tarkibiga kiritilgan asosiy kompleks xizmatlarni tashkil qiladi. Transport vositalari - turizm tizimini shakllantiruvchi turistik korxonalarning alohida ko‘rinishlari sifatida qarab chiqiladi4[4].

Butunjahon turistik tashkiloti (BTT) turizm maqsadlarida qo‘llaniladigan transport vositalarini uch turga klassifikatsiyalaydi: quruqlikda, suvda va havoda harakatlanuvchi (chizma-1).

Quriqlikda harakatlanish vositalaridan turizm maqsadlarida ko‘proq avtomobil va temiryo‘l transportlaridan foydalanish maqbul hisoblanadi.

Avtomobil transporti turizmda eng ko‘p va keng miqyosda foydalaniladi. Chunki u turistlarni «eshikdan eshikkacha»[5] eltib qo‘yishni ta’minlaydi. Ushbu maqsadlarda muntazam yo‘lovchi tashish uchun reys avtobuslari va nomuntazam – turistik korxonaning xususiy transporti va turistning shaxsiy transporti qo‘llaniladi.

Temir yo‘l transporti o‘rta masofalarga turistlarni maqbul narxlarda tez va qulay sharoitda yetib borishlarini ta’minlaydi. Alohida hollarda temiryo‘l transporti turistik sayohat maqsadlarida ham foydalanishi mumkin.

Suv transporti vositalari orasida suv osti (ekskursiya suv osti qayiqlari) va suv usti (teploxodlar, sayohat kemalari, dengiz paromlari, sayr kemalari, yaxtalar, katerlar) transportlari farqlanadi. Turizmda suv transporti vositalari ta’minoti bilan

[4]«Turizm infratuzilmasi» Ma’ruzalar kursi. SamISI. 2009.,

bog‘liq masalalari asosan dengiz va daryoda turistik maqsadlarda muntazam va nomuntazam yo‘lovchi tashish misolida qarab chiqiladi.

Paromda suzib o‘tish va asosiy turistik sayohat turi – sayohat kemasi, dengiz va daryo kemalari turistlarni belgilangan joyga yetkazib borishni maqsad qilib qo‘yadi. Boshqa suv transporti vositalaridan odatda alohida dasturli «programmali) tadbirlarni amalga oshirishda foydalaniladi (masalan, suv osti ekskursiyasi) yoki qo‘shimcha xizmatlar (katerlarda sayohat) va boshqalar.

1-Rasm

**Turizm maqsadlari uchun qo‘llanadigan transport vositalari turlari**



Havo transporti vositalari tarkibi xilma-xil transport vositalarini qamrab oladi va u fuqaro aviatsiyasidan tortib, to ekzotik hisoblangan havo sharlari, deltaplanlarni o‘z ichiga oladi.

U reysli va charterga klassifikatsiyalanadi, ya’ni buyurtmalar asosida bajariladi. Havo transportining muhim xususiyati shundan iboratki, u nisbatan juda qimmatligiga qaramay, bu yuqori tezligi, shinam va qulayligi bilan turistlarni olis masofalarga tashishda so‘zsiz yetakchi o‘rinni egallaydi.

Turizmda transport ta’minoti tizimi qo‘yidagicha farqalanadi:

- turga qo‘shilgan va asosiy turistik xizmatlarga kiruvchi turistik tashish: turistlarni doimiy yashash joyidan belgilangan manzilga eltib qo‘yish (yoki yo‘nalish boshlanadigan joyga) va qayta olib kelish;
- transfer – turistlarni kutib olish va kuzatib qo‘yish uchun transport vositasi taqdim etish;
- tur-safar bo‘yicha dasturlashtirilgan tadbirlarga xizmat ko‘rsatish: ekskursion xizmat, dasturdagi tadbirlarga borish, atrofga tashrif byurish, yo‘nalish bo‘yicha ko‘chish, ya’ni bir manzildan ikkinchi manzilga o‘tish;
- turistlar sayohatini ta’minlash uchun korxonaning trnasport vositalarini tanlashiga bir qator omillar bog‘liqdir: safarning maqsadli yo‘nalishida tashish uzoqligi, sayohatchilar soni, transport vositasining sig‘imi, safar dasturi, harakat xavfsizligi, transport vositasining qulaylik va safarbarligi darajasi.

Transport vositalarini tanlash chog‘ida safarning maqsadli yo‘anlishi katta rol o‘ynaydi. Turistik sayohat maqsadiga bog‘liq holda uning tarkibiga u yoki bu transport xizmatlari kiritiladi.

Transport vositasini tanlashga ta’sir etadigan yana bir muhim omil-bu sayohatchilar soni hisoblanadi. Bu omildan tez-tez tashish tipini aniqlashda foydalaniladi: muntazam yoki nomuntazam (ijaraga olingan yoki charter). Turistik guruhdagi sayyohlar soniga bog‘liq holda safarni ta’minlashda qaysi transport

vositasi zarurligi ham muhim rol o‘ynaydi: samolyotmi, temir yo‘lmi, avtobus yoki yengil avtomobillarmi va boshqalar.

Safarni ta’minlash uchun transport vositasini tanlashda yana bir hisobga olinadigan omil - bu transportda tashishning uzoqligidir. Shuning uchun qoidaga ko‘ra  butun safarni tashkil qilishda kompleks transporti ta’minoti bo‘yicha qarab chiqiladi.

Transport vositasini tanlashni aniqlashda, shuningdek safar dasturlari ham muhim omil hisoblanadi. Qaysikim unga bog‘liq ravishda eng xilma-xil trnasport xizmatlari ko‘zda tutiladi. Bular yuqorida eslatib o‘tilganidek ekskursiyalar, turistlarni dasturlarida ko‘zda tutilgan tadbirlarga olib kelish va boshqalar bo‘lishi mumkin. Odatda tartibga ko‘ra, guruh turizmida safar dasturini ta’minlash uchun turistik avtobuslardan ko‘proq foydalaniladi. Chunki, odatda tadbirlar dasturlar butun guruhga mo‘ljallangan bo‘lib, safarning belgilangan maqsad joyidan boshqa yerga borishi ko‘zda tutilmaydi.

**Turistlarni avtomobilda tashish.** Avtomobilda tashish - turistik tashishlarning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Shubha yo‘qki, avtomobilda tashishga yuksak safarbarlik, yuqori tezkorlik, maqbul narx, qo‘nib o‘tishga zarurat yo‘qligi, shuningdek harakat grafigini oson o‘zgartirish kabilar xosdir.

Turistik xizmat ko‘rsatishda foydalaniladigan avtomobil xizmati uchta asosiy yo‘nalishni o‘zida mujassamlashtiradi:

- avtobusda sayohatni  tashkil etish;
- turistlarning shaxsiy transportida sayohatni tashkil etish;
- avtomobillarni turistlarga prokat (ijra)ga  berish.

Qaysidir ma’noda mehmonxona inftratuzilmasi rivojlanishi, xususan, motellar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri avtoturizm bilan bog‘langan turli mamlakatlarda an’anaviy turistik trassalar bo‘ylab, butun bir kichik otellar va kempinglar zanjiri barpo etilgan. Ular eng avvalo shaxsiy avtomobilida sayohat qiluvchi turistlarga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan.

Avtobilda sayohatni tayyorlash jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- marshrut (yo‘nalish)ni ishlab chiqish;
- harakatlanish grafigini ishlab chiqish;
- marshrut hujjatlarini rasmiylashtirish.

Yo‘lda turistga quyidagi hujjatlar talab qilinadi: pasport (xorijga sayohat chog‘ida tegishli mamlakat vizasi bilan chet el pasporti), avtomobilni boshqarish huquqi berilgan guvohnoma, avtomobilni boshqarish huquqini beruvchi ishonchnoma yoki uni ijaraga olingani haqida shartnoma (agar sayohat o‘z avtomobilida amalga oshirilmasa).

O‘z shaxsiy transportida chet elga ketganlar xalqaro namunadagi haydovchilik guvohnomasiga ega bo‘lishlari lozim. Transport vositasi sug‘urtalangan, uning egasi fuqarolik javobgarligi sug‘urtasining sug‘urta polisiga ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, avtomobil hujjatlari bexato rasmiylashtirilgan bo‘lishi zarur. Turistik korxona bunday safarlarning tashkilotchisi sifatida ko‘rsatilgan hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirishda amaliy yordam berishi kerak. Bundan tashqari turistga belgilangan marshrut bo‘yicha harakatlanish, yonilg‘i quyish joyi, kempinglar, motellar, texnik xizmat ko‘rsatish punkti, shuningdek ushbu punktlarda xizmat ko‘rsatishga buyurtma beruvchi hujjatlar kartasi taqdim etilishi lozim. Yoki ko‘rsatilgan punktlarda qayta to‘lov bo‘yicha xizmat ko‘rsatilish imkonini beradigan xalqaro servis daftarchasi taqdim qilinadi. Xalqaro servis daftarchasi har xil xalqaro avtomobil klublari tomonidan beriladi, ulardan nemis klubi ADAS ko‘proq taniqli hisoblanadi. Bunday daftarcha egasi bu klub ishtirokchilari hisoblangan motellar, kempinglar, yo‘l bo‘yi restoranlari, texnik xizmat stansiyalari va yonilg‘i quyish stansiyalari xizmatidan foydalanish huquqiga ega.

Turistik xizmat ko‘rsatishda foydalanadigan xizmatlar spesifik turi bo‘lib avtomobillarni prokatga berish hisoblanadi. Qaysikim ushbu industriya avtomobil yaratilgan davrlardan boshlab, hamma vaqt rivojlanib kelayapti.

**Turistlarni temir yo‘l transportida tashish.** Turistlarni temir yo‘lda tashish turizm transport ta’minotining samarali vositasi hisoblanadi. Sayohatning

yuqori shinamligi, yuqori tezlik va maqbul narxlarda turistlar guruhini ixcham joylashtirish bu transport turini kichik va o‘rta masofalarga harakatlanishda raqobatbardoshligini oshiradi. Temiryo‘l transportidan ichki va chegara yaqini turizmini shuningdek, sayru tamosho, ekskursion safarlar va dam olish kunlari turizmini tashkil etishda ko‘proq foydalaniladi.

Aholi markazlaridan olisdagi kurortlar, dam olish va hordiq chiqarish maskanlari temiryo‘llar turistik sayohatga poyezdlar ta’sirini kuchaytirdi. Temiryo‘l kompaniyalari Yevropa, Kanada, AQShda otellar qurdilar. Canadian Paclfis va Canodion National temir yo‘llari kompaniyalari hozirgacha ko‘p sonli otel va kurortlarni boshqaromoqda.

Afsonaviy Sharq ekspress **«qirollar poyezdi va poyezdlar qiroli»** deb ataldi. U jahonda eng mashhur poyezd bo‘lsa ajabmas. O‘z vaqtida barcha hashamatni o‘zida mujassam etgan bu poyezd hozir ham romantik sayohat uchun alohida ko‘rk bo‘lib qolmoqda. 1883 yilda ishga tushgan Sharq ekspress Parij (Fransiya)dan badavlat kishilarni xushmanzara yo‘nalish bo‘yicha Istambul (Turkiya)ga yetkazib kelgan sayohat 4 kun vaqtni olgan. Lekin shohona sharoitda kechgan, a’lo darajada ovqatlanish va ideal servis xizmati tufayli unda vaqt juda tez o‘tgan.

Poyezdda yo‘lovchilarni tashish tizimi reysdan tashqari (charter) – zarurat tug‘ilganda komplektlanadigan va qat’iy belgilangan marshrut bo‘yicha oraliq vaqti va harakat grafigiga so‘zsiz amal qiladigan reyslarga bo‘linadi.

Standart temir yo‘l safarlarini shartli ravishda uchta mustaqil toifa (kategoriya)ga bo‘linadi:

- bir kunlik;
- nodavomiy (2-3 sutkalik);
- ko‘p kunlik (5 kun va undan ko‘proq).

Bir kunlik safarlar ertalab boshlanadi va o‘sha kuni kechqurun tugaydi. Yo‘lda turistlar vagon-restoranlar stoli atrofidan joy olib, yo‘l davomida ular nafaqat tamadi qiladilar, balki sirk va estrada artistlarining chiqishlari ham

tamosho qiladilar. Turistlar belgilangan stansiyagacha olib borilib, u yerda ular uchun maxsus dastur tayyorlangan bo‘ladi. Bu ekskursiya safari yoki tabiat qo‘yniga sayr bo‘lishi mumkin.

Ko‘p kunlik safarlar xilma-xilligi bilan farq qiladi. Marshrut va ekskursiya dasturlariga bog‘liq holda turistlarga ko‘pincha kunduzi ham temir yo‘lda tashish ishlari temiryo‘l transporti muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

**«O‘zbekiston Temir yo‘llari» Davlat aksionerlik temiryo‘l kompaniyasi** («O‘zbekiston Temir yo‘llari» DATK). U O‘zbekiston respublikasi xududida joylashgan sobiq O‘rta Osiyo temir yo‘llari bazasida 1994-yil 7-noyabrda tashkil etilgan. Kompaniyaning asosiy yo‘llari tarmog‘i 3645 km. ni tashkil etadi va unda hozirgi kunda 54,7 ming kishidan ko‘proq ishchilar ishlaydi.

2011 yil mamlakatimizda temir yo‘l qatnovi sohasida o‘ziga xos mas’uliyatli va shu bilan birga, muvaffaqiyatli o‘tganini alohida ta’kidlash lozim. “O‘zbekiston temir yo‘llari” DATKning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha vazifalari to‘liq bajarildi. Chunonchi, hisobot davrida temir yo‘l bekatlaridan 59,6 million tonna yuk jo‘natilib, yuk aylanmasi hajmi 22,5 milliard tonna-kilometrni yoki 2010 yilning shu davriga nisbatan o‘sish 10 foizni tashkil etdi. 2011 yil davomida 15,9 million yo‘lovchi o‘z manziliga yetkazib qo‘yildi. Yo‘lovchi aylanmasi hajmi 3 milliard 39 million yo‘lovchi-kilometrni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 104,6 foizni tashkil etdi.

2011 yilda kompaniya sanoat korxonalarida 44 ta lokomotiv seksiyasi modernizatsiya qilinib, 1430 ta yuk va 57 ta yo‘lovchi vagoni ta’mirlandi. Xitoy Xalq Respublikasidan 15 ta yo‘lovchi elektrovozi harid qilinib, 300 ta yuk va 15 ta yo‘lovchi vagoni qurildi. “Toshkent yo‘lovchi vagonlarini qurish va ta’mirlash zavodi” ochiq aksiyadorlik jamiyati sexlarida 13 ta yo‘lovchi vagoni yangilandi. Umumiy uzunligi 90 kilometrlik temir yo‘llar reabilitatsiya qilindi, 158 ta yo‘l o‘tkazgich almashtirildi. O‘zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 22 iyundagi qaroriga ko‘ra “Hayraton – Mozori Sharif” temir yo‘l liniyasidan foydalanish va xizmat ko‘rsatish ishlari boshlab yuborildi.

- «O‘zbekiston temir yo‘llari» DATK o‘z mijozlariga quyidagi xizmat turlarini taklif etadi:
- barcha xalkaro transport yo‘llari bo‘ylab yuklarni yetkazish va ekspeditsiyalash;
- yuklar (bogaj) va yo‘lovchilarni tashish;
- Buyuk Ipak Yo‘li bo‘yicha Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentga turistlarni tashish va ularga xizmatlar ko‘rsatish;
- vagonlarni kuzatish va qidirish;
- eng yangi uskunalar yordamida yo‘lovchi vagonlarining barcha turlarini ta’mirlash;
- barcha turdagi teplovoz va elektrovozlarni ta’mirlash;
- yuk vagonlarini tayyorlash va xizmat muddatini uzaytirish;
- taqdim etiladigan xizmatlar sifati kompaniyaning O‘rta Osiyo xududida transport xizmat bozorida orttirgan ko‘p yillik tajribasi bilan kafolatlaydi.

**«Registon» tezkor elektro-poyezdi.** Yo‘lovchi tashishda qulayligini oshirish maqsadida va uni jahon standartlari darajasiga yetkazish uchun 2004-yil 15-yanvarda «O‘ztemiryo‘lyulovchi» OAJ shinamligi oshirilgan tezkor yo‘lovchi poyezd yo‘nalishi tashkil etildi. Olti vagondan iborat «Registon» elektro-poyezdi yuqori tezlikda (avtomobil transportidan tez) qisqa vaqt ichida yo‘lovchilarni Toshkentdan Samarqandga va orqaga tashishni boshladi. Vagonlar qulay o‘rindiqlar bilan jihozlangan, ko‘pelarga bo‘lingan, har bir kupeda olti yumshoq o‘rindik o‘rnatilgan.

Yo‘lovchi vagonlari kupesida 61-4170 modifikatsiyadagi o‘rindiqlar 1520 mm. kenglikdagi magistral yo‘llar bo‘ylab soatiga 200 km. tezlikda yo‘lovchilarni tashishga mo‘ljallangan. Vagonlar konstruksiyasi yoritish, ergonomika, mikroiklim, yongin xavfsizligi bilan sanitariya me’yorlari to‘liq javob beradi. Germetik va shamol qarshiligini yenguvchi konstruksiya harakat chog‘ida bir tipli vagonlar tarkibida yuqori tezlikni ta’minlaydi. Yon devorlar va pol

zanglamaydigan po‘lat tusiqlar bilan qoplangan. Bu esa kuzov og‘irligini kamaytirish va ta’mirlash-tiklash ishlarisiz uzoq muddat xizmat qilishga imkon beradi.

Havoni mutadillashtirish qurilmasi trubo kompressor bilan jihozlangan. U mikroprotsessor qurilmasi yordamida yilning issiq fasllari davrida vagonlar havo haroratini bir me’yorda (+24S darajada) bo‘lib turishini ta’minlaydi.

Yangi konstruksiyadagi derazalar yangi issiqlik o‘tkazmaydigan usulda qurilgan. Shovqin o‘tkazmaydi, issiqlikni saqlash me’yorini ta’minlaydi. Bu o‘z navbatida qulaylikni oshirib, energiya sarfini kamaytiradi.

**«Sharq» va «Nasaf» ekspress poyezdlari.** «O‘zbekiston temir yo‘llari» DATK «Sharq» va «Nasaf» ekspress poyezdlari muntazam harakati ham yo‘lga qo‘yildi. Ular Toshkent – Buxoro, Toshkent – Qarshi yo‘nalishida qatnay boshladilar. Bunday poyezdlar 160 km. tezlikda harakatlanganda ham xavfsizligi, qulayligi, vaqtdan yutish, sanitariya barcha talablariga javob berishi bilan yo‘lovchilarga manzur bo‘lmoqda.

Bu gal bunday shinam vagonlar «Toshkent yo‘lovchi vagonlarini ta’mirlash» OAJda Buxoro va Qarshiga safar uchun tayyorlandi. Korxona mutaxassislari vagonlar ichki va tashqi dizaynini Rossiya, Belorussiya, Ukrainadagi harakatdagi sostav poyezdlari vagonlaridan qolishmaydigan darajada bo‘lishiga erishdilar.

**“Toshkent — Samarqand Afrosiyob” ekspress poyezdi.** Umuman olganda, “Toshkent — Samarqand” yo‘nalishida yuqori tezlikda harakatlanuvchi “Afrosiyob” poyezdlari harakatini tashkil etish loyihasi bo‘yicha 150,29 million dollarlik kapital mablag‘ o‘zlashtirildi.

Bu loyiha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 5 yanvardagi “Toshkent – Samarqand temir yo‘l liniyasi uchastkasida yuqori tezlikdagi poyezdlar harakatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoyishi asosida O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi krediti va “O‘zbekiston temir yo‘llari” DATK mablag‘i hisobidan amalga oshirildi va shu loyiha asosida birinchi tezyurar “Afrosiyob” elektropoyezdi Toshkentga 2011 yilning 22 iyul kuni olib

kelindi. Mustaqillik bayrami arafasida mamlakatimiz temir yo‘llari tarixida yana bir quvonchli voqea yuz berdi. Ispaniya va O‘zbekiston davlatlari o‘rtasidagi hamkorlik samarasida yurtimizga keltirilgan “Afrosiyob” poyezdlarining dastlabkisi “Toshkent — Samarqand” liniyasida o‘z qatnovini boshladi. Ikkita lokomotiv, 8 ta yo‘lovchi va bitta vagon restoranidan iborat poyezdda shu kungacha 7 mingga yaqin yo‘lovchi manziliga yetkazildi. 2011 yilning 9 dekabr kuni «PATENTES TALGO S.L.» (Ispaniya) kompaniyasida ishlab chiqarilgan ikkinchi yuqori tezlikda harakatlanuvchi “Afrosiyob” elektropoyezdi Toshkentga kirib keldi(1.2.1 – rasm).

2011 yili ijtimoiy soha ob’ektlariga 59 milliard so‘mlik mablag‘ yo‘naltirildi. Joylarda 582 ta yangi ish o‘rini tashkil etildi.

«O‘zbekiston temir yo‘llari» DATK 1993-yildan buyon temir yo‘llar hamdo‘stligi Toshkentdagi (OSJD) ga a’zo hisoblanadi. Kompaniya xalqaro temir yo‘llar ittifoqi (MSJD) va BMTning Osiyo-Tinch okeani regioni uchun iqtisodiy komissiyasi (ESKATO) bilan mustahkam aloqada. DATK TRASEKA loyihasi (Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport yo‘lagi)[6] Yevropa ittifoqi TASIS komissiyasi dasturi bilan hamkorlikda ish olib boryapti.

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” mavzusidagi ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. **– T.: Iqtisodiyot. - 2012. – 282 bet.**



***2– rasm. Toshkent – Samarqand yo‘nalishida “Talgo-250” yo‘lovchi elektr poezdi***

**Turistlarni aviatsiya (havo) transportida tashish.** Aviatsiya (havo) transporti jahon xo‘jaliginiing nisbatan tez va dinamik holda rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. U umumjahon transport tizimida tobora mustahkam o‘rin egallamoqda. Olis masofalarga turistik sayohat tashkil etishda (masalan, Shimoliy Amerika, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari yoki jahon makrohududlarining boshqa olisliklariga) aviatsiyada tashish amalda maqomli vositadir. Ichki yo‘nalishlarda turistlarni samolyotda tashish ham ancha qulay hisoblanadi. Ayniqsa Rossiya, Xitoy, AQSH kabi yirik davlatlarda aviatsiyaning roli katta.

Jahonda 1300 dan ko‘proq aviakompaniyalar mavjud bo‘lib, aviareyslarda har yili o‘rtacha 1.5 mlrd. kishi tashiladi. Xalqaro havo aloqalariga xizmat ko‘rsatishda jahonning 1 mingtadan ortiq aeroportlari ishtirok etadi. Ulardan 650 ga yaqini muntazam xalqaro havoda aviatashishlarni ta’minlaydi. Hozirgi vaqtda xalqaro tashish tarmoqlari barcha geografik hududlarni qamrab olgan va ular 190 dan ziyod davlatlarni bog‘laydi.




## 1.3.Turistlarga havo transportida xizmat ko‘rsatishning huquqiy asoslari.

Aviatashuvlar boshqa transport vositalari bilan xizmat ko‘rsatishga nisbatan bir qancha o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu, eng avvalo, ob-havo sharoitiga bog‘liqligi hamda samolyotlarning uchish va qo‘nish joylaridagi landshaft bilan bog‘liq. Bundan tashqari, harakatlanadigan tarkibdan foydalanish shart-sharoitlari aeroportlarni aholi yashaydigan joylardan tashqariga chiqarishga majbur qiladi va yo‘lovchilar bevosita uchishga tayyorgarlik ko‘rishi uchun ancha ko‘p vaqtni taqozo etadi. Shunga qaramay, aviatashuvlar o‘zining asosiy ustunligi — manzilga juda tez eltib qo‘yishi bilan yer usti va suv transporti bilan jiddiy raqobatlashadi.

Aviatashuvlar yo‘lovchilar va bagajni tashishning o‘ziga xos turi bo‘lib, aviatsiya korxonalari tomonidan havo kemalarida belgilangan haq evaziga, shuningdek tashuvchining yer usti transportlarida amalga oshiriladi.

**Ichki aviatashuv** — jo‘nash joyi, borish manzili hamda barcha qo‘nish joylari bir davlat hududida joylashgan bo‘lib, havoda yo‘lovchi va yuk tashish.

**Xalqaro aviatashuv** — jo‘nash joyi va borish manzili ikki davlat hududida; agar boshqa davlat hududida qo‘nish nazarda tutilgan bo‘lmasa, bir necha davlat hududida joylashgan havoda yo‘lovchi va yuk tashishdan iborat.

**Tashish davri** quyidagilarni o‘z ichiga oladi: yo‘lovchi tashishda – yo‘lovchi aeroport perroniga havo kemasiga chiqish uchun kirgan paytdan boshlab u perronni tashuvchining vakolatli shaxslari kuzatuvida tark etgunga qadar davri;

**Bagaj tashishda** — bagaj tashish uchun qabul qilingan paytdan u oluvchiga berilgunga yoki belgilangan qoidalarga binoan boshqa tashkilotga topshirilgunga qadar davrga aytiladi. Bunda perron deganda fuqaro aerodromning yo‘lovchilar chiqishi va tushishi, bagaj, yuk va pochtani yuklash va tushirish, shuningdek boshqa xizmat ko‘rsatish turlari uchun havo kemalarini joylashtirishga mo‘ljallangan uchish maydonining qismiga tushuniladi.

**Aviatashuvlarni tartibga solish** xalqaro qonunchilik (agar tashuv xalqaro xususiyatga ega bo‘lsa) yoki milliy qonunchilik (agar tashuv ichki xususiyatga ega bo‘lsa) asosida amalga oshiriladi.

Dunyo miqyosidagi va ikki tomonlama konvensiyalar xalqaro aviatashuvlarni tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Ikki tomonlama bitimlar, qoida tariqasida, hamkorligi boshqa shartnomalar (MDH, YEI doirasidagi va h.k.) bilan belgilangan ikki davlat o‘rtasida tuziladi.

Keng ahamiyatga molik xalqaro bitimlarda davlatlarning ancha katta doirasi ishtirok etadi. Ular uchishlarni tartibga soluvchi xalqaro normalar va qoidalarni, shuningdek mazkur davlatlar hududi ustida aviatashuvlarni tashkil etish prinsiplarini ishlab chiqadi.

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi sohasidagi dastlabki huquqiy hujjatlardan biri 1929 yilda qabul qilingan «Xalqaro aviatashuvlarga daxldor ayrim qoidalarni unifikatsiya qilish to‘g‘risida»gi Varshava konvensiyasidir. Ushbu normativ hujjatda quyidagilar o‘z ifodasini topgan:

- xalqaro aviatashuvlar ta’rifi;
- aviatashuvchilar tomonidan havoda yo‘lovchi va bagaj tashish tartibi;
- tashish shartnomasini tasdiqlovchi asosiy tashish hujjatlari;
- tashuvchining javobgarligi tartibi;
- ushbu konvensiyaga davlatlarning qo‘shilishi tartibi[1].

Keyinchalik Varshava konvensiyasi 1955 yilgi Gaaga bayonnomasi, 1971 yilgi Gvatemala bayonnomasi va 1975 yilgi Monreal bayonnomasi bilan kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar orqali rivojlantirildi.

Yo‘lovchining o‘limi yoki uning sog‘lig‘iga shikast yetkazilganligi, bagajning yo‘qotilganligi va shikastlanganligi uchun tashuvchining javobgarligi to‘g‘risidagi qoida Varshava konvensiyasiga kiritilgan muhim band hisoblanadi. Ushbu hujjatga binoan, xalqaro reyslarda yo‘lovchining hayoti va sog‘lig‘i uchun tashuvchining javobgarligi aksariyat hollarda 10 000 (10 ming)AQSH dollari bilan chegaralanadi.

Bagajning yo‘qotilganligi va shikastlanganligi uchun tashuvchining javobgarligi aksariyat xalqaro tashuvlarda (shu jumladan xalqaro tashuvning ichki qismlarida) ro‘yxatdan o‘tkazilgan bagajning 1 kilogrammi uchun 20 AQSH dollari hamda har bir yo‘lovchining ro‘yxatdan o‘tkazilmagan bagaji uchun 400 AQSH dollarini tashkil etadi.

***Fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkiloti – ICAO (International Civil Aviation Organization)*** (2003 yil 4 noyabrda kuchga kirgan Monreal konvensiyasi 1999 yilda doirasida tuzilgan) aviahalokatlardan jabr ko‘rgan shaxslar va ularning qarindoshlariga to‘lovlar bo‘yicha ***Varshava konvensiyasida belgilangan***

[1] Qarang: Varshavskaya «Konvensiya dlya unifikatsii nekotorix pravil, kasayushixsya mejdunarodnix voz-dushnix perevozok», prinyataya v 1929 g.

***limitlarni bekor qildi.*** Boz ustiga, ushbua konvensiya javobgarlikning ikki darajali tizimini amalga joriy etdi. Birinchi darajada, sug'urta hodisasi yuz bergani zahoti, aviakompaniya (yoki uning sug'urtalovchisi) jabr ko'rgan har bir kishiga, hatto tashuvchining aybi isbotlanmagan bo'lsa ham, taxminan 135 000 (135 ming) AQSH dollari to'lashi lozim. Bordiyu aviakompaniya hodisada aybdor deb topilsa, javobgarlikning ikkinchi darajasi amalga kiritiladi va unda zararni qoplash bo'yicha to'lanadigan tovon puli summasi chegaralanmaydi. Tashuvchining yo'lovchilar bagajini yo'qotganlik uchun javobgarligi ham oshirildi.

Monreal konvensiyasi kuchga kirgan paytgacha uni 31 davlat imzoladi (Barbados, Baxreyn, Beliz, Botsvana, Makedoniya, Gresiya, Iordaniya, Kamerun, Kanada, Keniya, Kipr, Kolumbiya, Quvayt, Meksika, Namibiya, Nigeriya, Yangi Zelandiya, Tanzaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Panama, Paragvay, Peru, Portugaliya, Ruminiya, Suriya, Slovakiya, Sloveniya, AQSH, Chexiya Respublikasi, Estoniya, Yaponiya). Yangi hujjatga O'zbekiston rasman qo'shilgani yo'q, shu sababli mamlakatimizda xalqaro aviatashuvlarni amalga oshirishda Varshava konvensiyasi amal qiladi.

Shunga qaramay, ayrim tashuvchilar, ayniqsa, xususiy tashuvchilar xalqaro standartlarning yangi qoidalariga muvofiq o'z harajatlari moddalarini oshira boshladilar. Tabiiyki, bunga faqat ko'proq kafolatlar bera oladigan va samolyotlarni 750 mln. – 1 mlrd. AQSH dollarga sug'urta qiladigan moliyaviy jihatdan barqaror va yirik aviakompaniyalargina qodir. Qolgan kompaniyalar hukumat qarorlarini bajarishi shart.

Ko'pgina ekspertlarning fikricha, O'zbekiston yuqorida ko'rsatilgan konvensiyaga yaqin kelajakda albatta qo'shiladi, chunki ushbu jarayonning kechga surilishi milliy aviakompaniyaning xalqaro bozordagi mavqeni pasayishiga olib keladi. O'zbekiston fuqarolari kam havo kemasi bortidagi noxush hodisalar uchun ko'proq tovon to'laydigan chet el tashuvchilari xizmatlaridan foydalanishni ma'qul ko'rishlari mumkin. Bundan tashqari, xalqaro uchishlar

qabul qilingan xalqaro normativlarga rioya qilishni talab etganligi uchun konvensiyaga imzo chekkan mamlakatlarning aviatsiyani boshqarish idoralari ko‘rsatilgan hujjatni hali imzolamagan davlatlardan samolyotlarni o‘z hududiga kiritmaslik huquqiga ega. Masalan, shovqinni chegaralash bilan bog‘liq hollarda shunday bo‘lgan: shovqinni kuchli samolyotlarning uchishini chegaralovchi xalqaro standartlarni qabul qilgan mamlakatlar Rossiyaning samalyotlarini o‘z aeroportlariga kiritmadi, iqtisodiy holatini hisobga olish niyatida emas ekanliklarini namoyish etdilar.

**Jahon havo yo‘llaridagi faoliyatni tartibga solish uchun** bir necha xalqaro tashkilotlar tuzilgan bo‘lib, ularning maqsadi xalqaro aviatsiya aloqalarini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Eng obro‘li tashkilotlar qatoriga ***Fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkiloti – ICAO (International Civil Aviation Organization) va Havo transporti xalqaro uyushmasi – IATA (International Air Transport Association) kiradi.***

**ICAO** tashkiloti 1944 yili Chikagoda hukumatlararo tashkilot sifatida tuzilgan bo‘lib, bugungi kunda unga jahonning 187 mamlakati a’zo. ICAO tomonidan ko‘riladigan asosiy masalalar doirasiga quyidagilar kiradi:

- samolyotlar uchun navigatsiya sistemalarining unifikatsiya qilingan qoidalarini ishlab chiqish;
- uchish xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, havo yo‘lllarining xavfsizligi, shu jumladan muntazam aviatashuvlarga litsenziyalar berish;
- tashkilotga a’zo mamlakatlarga texnik yordam ko‘rsatish va sh.k.

2001 yilning sentyabr—oktyabr oylarida Monrealda (ICAO shtab-kvartirasida) ICAOning navbatdagi, 33-chi Assambleyasi bo‘lib o‘tdi. U 11 sentyabrda AQShda yuz bergan fojia munosabati bilan xalqaro fuqaro aviatsiyasida uchishlar xavfsizligini oshirishning global strategiyasini ishlab chiqishga chaqirdi. Assambleyada 2004 yildan boshlab:

- Uchishlar xavfsizligini ta’minlash ustidan nazoratni tashkil etishni tekshirish Universal dasturini kengaytirish;

- Uchishlar xavfsizligini ta’minlash maqsadida moliyalashtirishning xalqaro mexanizmini yaratish;
- ICAO Texnik hamkorlik dasturini mustahkamlash;
- Aviatsiyani urush xavfidan sug‘urta qilishning xalqaro mexanizmi tamoyillarini ishlab chiqishga qaror qilindi.

Bundan tashqari, Assambleya so‘nggi yillarda fuqaro havo kemalari bortida intizomsiz yo‘lovchilar tomonidan sodir etilayotgan jiddiy hodisalar soni ko‘payganligi munosabati bilan maxsus rezolyusiya qabul qildi. Ushbu rezolyutsiyaga asosan barcha davlatlarga huquqbuzarlik qayerda sodir etilganligidan qat’i nazar, huquqbuzarlarni sud orqali ta’qib qilish imkonini beruvchi tegishli qonunlar va qoidalar qabul qilish taklif etiladi.

Havo transporti faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro tuzilmalardan tashqari, fuqaro aviatsiyasini rivojlantirish masalalari bilan shug‘ullanadigan bir qancha mintaqaviy hukumatlararo tashkilotlar ham mavjud:

- Fuqaro aviatsiyasi Yevropa konferensiyasi va Yevropa aeronavigatsiya xavfsizligi tashkiloti — Yevronazorat.
- Afrikadagi 32 davlatni birlashtirgan Afrika fuqaro aviatsiyasi komissiyasi.
- Mintaqadagi 20 mamlakatni birlashtiruvchi Arab davlatlari fuqaro aviatsiyasi kengashi.
- Lotin Amerikasi fuqaro aviatsiyasi komissiyasi. Uning tarkibiga Janubiy va Markaziy Amerika hamda Karib dengizi havzasidagi 19 mamlakat kiradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan barcha birlashmalarning maqsadi o‘z mintaqalarida uchish xavfsizligini oshirish vazifalarini hal qilish, tegishli davlatlarning aviatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish, mintaqalardagi havo navigatsiyasi nazorat tizimini takomillashtirishdan iborat.

## II-Bob. O‘zbekiston Respublikasida turistlarga havo transportida xizmat ko‘rsatish.

### 2.1. “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” MAKning mintaqaviy turizmni rivojlantirishdagi o’rni.



“O‘zbekiston Havo Yo‘llari” milliy aviakompaniyasini tashkil etish to‘g‘risidagi farmon 1992 yil 28 yanvarda imzolandi. Shu sanadan e’tiboran mustaqil O‘zbekistonning fuqaro aviatsiyasini rivojlantirish davlat dasturi amalga oshirila boshlandi. U samolyot parkini qayta tashkil etishni, mavjud aeroportlarni rekonstruksiya qilish va yangi aerovokzal komplekslari qurishni, IKAO talablariga muvofiq aeroportlarni qayta jihozlashni, yuqori malakali kadrlar tayyorlash bazasini vujudga keltirishni o‘z ichiga olar edi. Mamlakat Havo kodeksi qabul qilindi va tez orada havo harakatini boshqarish tizimini jahon andozalariga muvofiq modernizatsiya qilishga kirishildi.

Bugungi kunda MAK tarkibiga Uchish kompleksi (UK), Aviatsiya texnikasi kompleksi (ATK), Maxsus aviatsiya ishlari aviakompaniyasi (MAI), Ta’minot markazi (TM), Havo aloqalari bosh agentligi (HABA), “Uzbekistan Airways Technik” aviatsiya korxonasi, Havo harakatini boshqarish markazi (HHBM), Ketring, O‘quv markazi (O‘M) kiradi.

Bugungi kunda “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” milliy aviakompaniyasi jahonning yetakchi aviatashuvchilari qatoridan munosib o‘rin egallagan. Aviakompaniyaning xalqaro havo yo‘llari Amerika va G‘arbiy Yevropadan Yaponiya va Malayziyagacha bo‘lgan hududlarni qamrab oladi.

### Tarix sahifalari

1992 yil – Londonga birinchi reys amalga oshirildi. Karachi, Dehli, Kuala-

Lumpur, Tel-Aviv, Pekinga yangi xalqaro marshrutlarni oʻzlashtirishga kirishildi.

1993 yil – Toshkent birinchi marta A-310 aerobusini qabul qildi. Frankfurt va Bangkoka reyslar ochildi, aviakompaniya MDHda birinchi boʻlib Yevropa sifat sertifikatini oldi.

1994 yil – Afina, Manchester, Seulga reyslar ochildi. Yana bir A-310 aerobusi sotib olindi.

1995 yil – MAK Bahraynga reyslarni amalga oshira boshladi. Toshkent – Nyu-York qit’alararo marshruti oʻzlashtirildi. Toshkentda yangi Havo harakatini boshqarish markazining poydevoriga birinchi tosh qoʻyildi.

1996 yil – Poytaxt aeroportiga birinchi “Boing-767” qoʻndi. Oradan besh kun oʻtgach, “Boinge”da Sharjaga reys amalga oshirildi. Tez orada bu samolyotlar Frankfurt, Bangkok, Seul, Pekin, Nyu-Yorkka ucha boshladi. Yangi Havo harakatini boshqarish markazi ishga tushdi.

1997 yil – Aviakompaniya Aviatsiya xavfsizligi Xalqaro Fondining nufuzli Diplomi bilan taqdirlandi. MAKning samolyot parkiga oʻrtacha uzoqlikka uchadigan yangi RJ-85 havo layneri qoʻshildi.

1998 yil – Parij va Dakkaga yangi reyslar ochildi. Gʻarbda ishlab chiqarilgan samolyotlarga C-check hajmida texnik xizmatlar koʻrsatish huquqini beruvchi JAR-145 Yevropa sifat sertifikati topshirildi. Uchinchi A-310 samolyoti sotib olindi.

1999 yil – Toshkent – Kiyev – Nyu-York yangi qit’alararo trassasi ochildi. Yapon turistlarini Nagoyadan Toshkentga tashish boʻyicha charter dasturi bajarildi. Er-Riyodga reys ochildi. Yangi “Boing-757” havo laynerlari olindi.

2000 yil – Rim, Birmingem, Amritsarga yangi marshrutlar ochildi. Aviakompaniya aviabiznesdagi xizmatlari uchun “Yevromarket 2000” sovrini bilan taqdirlandi. Toshkent aeroportidagi yer usti asbob-uskunalarini almashtirish boʻyicha yirik loyiha amalga oshirildi. Buning natijasida Toshkent aeroporti Yevrosiyo qit’asining eng zamonaviy havo gavanlari qatoriga qoʻshildi.

2001 yil - Toshkent – Osaka yangi xalqaro reysi ochildi.

2002 yil – Faoliyat doirasi kengayishi va xalqaro bozorga chiqilishi munosabati bilan Aviata’mirlash zavodi Uzbekistan Airways Techniss korxonasiga aylantirildi. Toshkent – Narita – Osaka reysini ochish to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi. Uzbekistan Airways technics texnik xizmat ko‘rsatish markaziga A-310 va Boing 757, 767 samolyotlarida aviata’mirlash ishlarini bajarish huquqini beruvchi ikkinchi sertifikat topshirildi. Alitaliya kompaniyasi bilan shering bitimi tuzildi. “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” milliy aviakompaniyasi bilan Vinnitsadagi aviata’mirlash zavodi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolandi.

2003 yil – “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” milliy aviakompaniyasi bilan Novosibirs aviata’mirlash zavodi o‘rtasida Mi-8 MTV vertolyotini ta’mirlash to‘g‘risida shartnoma tuzildi. Toshkent – Birmingem – Nyu-York marshruti bo‘yicha birinchi reys amalga oshirildi. “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” Il-114-100 yangi komfortabel layneridan mahalliy havo yo‘llarida foydalana boshladi. Toshkent aeroportida teleskopik trap ishga tushirildi. RJ-85 samolyotida Hirotga birinchi charter reys amalga oshirildi. Xanoy va Xoshiminga reyslar ochildi. Uzbekistan Airways Technics korxonasi A-310 samolyotlarida IL-check hajmida ishlarni bajarish huquqini qo‘lga kiritdi. “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” aviakompaniyasi yangi Boing-767-300ER avialaynerini sotib oldi.

2004 yil - 26-chi Moskva Xalqaro konferensiyasida Toshkent xalqaro aeroporti 2003 yilning Eng yaxshi aeroporti tanlovida “Jadal rivojlanayotgan aeroport” nominatsiyasida Faxriy yorliq va Kichik kubok bilan taqdirlandi, Samarqand xalqaro aeroporti esa Yilning eng yaxshi aeroporti tanlovida 100000 kishigacha bo‘lgan yo‘lovchilarni tashish hajmi nominatsiyasida Faxriy yorliq bilan mukofotlandi. MAK Sankt-Peterburgga ikkinchi reys ochdi. Yaponiyaga reyslar soni oshirildi. MAK Toshkent – Riga – Nyu-York marshruti bo‘yicha muntazam uchishlar tashkil qildi.

Bugungi kunga kelib MAK samolyotlar parkida yettita “Boing” bor. Yilning oxirigacha ularning soni o‘ntaga yetadi. Xalqaro charter yuk va yo‘lovchi tashishni rejalashtirish va ta’minlash borasida to‘plangan katta tajriba, “O‘zbekiston Havo

Yo‘llari” milliy aviakompaniyasida barcha yo‘nalishlar, shu jumladan Xurgada (Misr), Urumchi (Xitoy), Antaliya (Turkiya), Aleppo (Suriya), Dubay (BAA), Utapao (Tayland) kabi ommaviy turistik marshrutlar bo‘yicha uchishga litsenziyalarning mavjudligi charter tashuvlari bozorida muvaffaqiyatli ish olib borish imkonini beradi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining ko‘p sonli aviatashuvchilari orasida “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” o‘zining barqarorligi, ishonchliligi va xalqaro maydondagi obro‘si bilan ajralib turishi umumiy e’tirof etilgan.

Dengiz yo‘llaridan uzoqda joylashgan O‘zbekiston jahon hamjamiyatiga qo‘shilishida aviatsiya hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli tarmoqda amalga oshirilayotgan islohotlar ahamiyati kattadir. Xalqaro aviatransport bozoriga “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” milliy aviakompaniyasining kirib kelishi yangi aviatsiya texnikasini, rivojlangan G‘arb mamlakatlari foydalanayotgan ilg‘or texnologiyalarni jadal sur’atlarda o‘zlashtirishdan, axborot maydonini kengaytirishdan boshlandi. Birinchi A-310 aerobusi “O‘zbekiston Havo Yo‘llari”da 1993 yili paydo bo‘lgan edi. Bugungi kunda kompaniya aviaparkining uchdan bir qismini A-310, Boing 767 va 757, RJ-85 kabi havo kemalari tashkil etadi. “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” marshrutlari tarmog‘i jahonning 20 dan ortiq mamlakatini qamrab oladi. MDHning ko‘pgina shaharlari bilan mustahkam havo aloqalari o‘rnatilgan. Yer kurrasining turli mintaqalarida kompaniyaning qirqqa yaqin vakolatxonasi ishlab turibdi.

Aviatsiya hamjamiyatida “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” haqli ravishda eng xavfsiz aviakompaniyalardan biri hisoblanadi. Xavfsizlikning oshishiga "O‘zaeronavigatsiya" sistemasining takomillashuvi orqali erishildi: eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan Uchishni boshqarish markazi barpo etildi, natijada havo muhitiga xizmat ko‘rsatish mintaqasi nafaqat butun O‘zbekiston hududini qamrab oladi, balki yo‘ldoshli aloqa orqali MAK samolyotlarini yer kurrasining istalgan nuqtasida boshqarish imkonini beradi. Shunday mukammal markazlar hozirda Buxoro, Samarqand, Urganch aeroportlarida tashkil etilgan.

Havo kemalarini aerodromda ta’minlash va ularga tijorat xizmatlari ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha yer usti texnikasi almashtirildi. O‘zbekistonning turistik markazlarida yangi aerovokzallar va uchish-qo‘nish yo‘laklari qurildi, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sohasida ilg‘or axborot texnologiyalari amalga joriy etildi, xizmatlar ko‘rsatish sohasi kengaydi, xalqaro bronlashtirish global tizimlariga aviakompaniyaning ulanishi yer kurrasining istalgan yo‘nalishida reyslarni tanlash imkoniyatini yaratdi.

Ko‘pgina ommaviy axborot vositalarida O‘zbekiston "aviatsiya davlati" deb e’tirof etildi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 11 ta aeroport ishlab turibdi. Toshkent aeroporti Markaziy Osiyodagi eng yirik aeroportdir. Uning o‘tkazish qobiliyati soatiga 1000 tagacha yo‘lovchiga jahon andozalari darajasida xizmat ko‘rsatish imkonini beradi.

Aviatsiya xavfsizligini oshirish masalasi bugungi kunda ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda aerodromlar, aerovokzallar va aviatsiya ob’ektlarini qo‘riqlashning ishonchli tizimi tashkil etilgan. AQShda fojiali hodisalar yuz berishidan ancha oldin “O‘zbekiston Havo Yo‘llari” samolyotlari uchuvchilar kabinasining eshigi mustahkamlangan holda va MXX qurollangan ofitserlari kuzatuvida ucha boshladi.

O‘zbekiston tashqi siyosiy maydonda tan olinishi bilan mamlakatimizga tashrif buyurishni istagan odamlar soni ko‘paydi. Aviakompaniya London, Berlin va Osakada o‘tkazilgan xalqaro turistik yarmarkalarda bir necha marta ishtirok etdi va har safar O‘zbekistonga, uning buyuk tarixiy o‘tmishiga va hozirgi hayotiga jahon hamjamiyatida qiziqish juda kuchli ekanligiga ishonch hosil qildi. O‘z imkoniyatlarini namoyon etib, MAK mamlakatning iqtisodiy o‘sishiga, uning xalqaro miqyosdagi obro‘si oshishiga, yer kurrasining turli xalqlari bilan madaniy aloqalarning kengayishiga imkoniyat yaratmoqda.

**O‘zbekiston aeroportlari.** O‘zbekiston aeroportlari davlat transporti infratizilmasining muhim qismidan biri bo‘lib, respublika shaharlari orasida hamda chet el mamlakatlari bilan tezkor bog‘lanishni ta’minlaydi. "O‘zbekiston havo yo‘llari" Milliy aviakompaniyasi tarkibiga 11 aeroport kiradi. Ulardan oltitasi - Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termez, Navoiy xalqaro aeroport maqomiga ega.

**«TOSHKENT» Xalqaro aeroporti.** Poytaxtning «Toshkent» [7] aeroporti so‘zsiz yetakchi aeroportdir. Yaqin chet el mamlakatlari aeroportlariga qaraganda geografik jihatdan juda qulay, yani MDH davlatlaridan Janubi-Sharqiy Osiyo, Yevropa va Amerikaga havo trassalarining kesishgan nuqtasida joylashgan.

«Toshkent» xalqaro aeroporti dunyoning barcha katta shaharlari bilan havo yo‘llari orqali bog‘langan. U IKAOning ikkinchi kategoryasiga ega bo‘lib, turli rusumdagi samolyotlarni qabul qiladi. Har yil uning xizmatidan 2 milliondan ortiq yo‘lovchi foydalanadi.

Bundan tashqari aerovokzalda tranzit yo‘lovchilar uchun alohida terminal va xizmat ko‘rsatish shahobchalari ham mavjud. Shahar transportining qulay yo‘nalishlari ham yo‘lovchilarni poytaxtning istalgan joyiga olib boradi.

Aerovokzal binosida O‘zbekiston aholisi va mehmonlari uchun:

- barcha qulayliklarga ega keng va yorug‘ kutish zallari;
- tunu-kun ishlaydigan pasport, bojxona, chegara xizmatlari ;
- ma’lumotlar xizmati;
- bagaj jo‘natishning yangi konveyr tizimi;
- xalqaro telefon aloqasi;
- bilet sotish va bronlashtirish kassalari;
- Dyuti-Free savdo shahobchasi;
- restoran, bar, «bir zumda» ovqatlanish punktlari;

[7] Mamatqulov X.M. «Turizm infratuzilmasi» Ma’ruzalar kursi. SamISI. 2009.,




**5-rasm. "TASHKENT" xalqaro aeroportining tashqi ko‘rinishi.**




**6-rasm. "SAMARKAND" xalqaro aeroportining tashqi ko‘rinishi.**




**7-rasm. "BUHARA" xalqaro aeroportining tashqi ko‘rinishi.**

- valyuta almashtirish shahobchalari;
- VIP zali (yuqori martabali kishilarga xizmai ko‘rsatish);

- KIP zali (yuqori qulayliklarga ega) joylashgan.

Mahalliy yo‘nalishlar terminali binosi ham barcha qulayliklarga ega. Bu yerdan siz respublikamiz shaharlari, bo‘lmish Samarqand, Buxoro, Xiva hamda viloyat markazlariga borishingiz mumkin.

Mamlakatimizning bosh aeroporti dunyoning 30dan ortiq aviakompaniyalariga xizmat ko‘rsatayapti. Bu yerda har kuni o‘nlab bortlar yonilg‘i bilan ta’minlanadi. «Toshkent» aeroportini rivojlantirish istiqbolli rejasida uni mintaqalararo yo‘lovchi, yuk tashuvlari amalga oshiruvchi xalqaro markazga aylantirish mo‘ljallangan.

**«SAMARQAND» Xalqaro aeroporti.** Samarqand shahri nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda mashhur sayyohlik markazidir. Zamonaviy RJ-45 havo kemasi 45 daqiqada sayyohlarni poytaxtdan qadimiy shaharga yetkazib keladi. Hozirgi kunda «Samarqand» xalqaro aeroporti xalqaro tranzit yo‘nalishlar uchun muhim zvenolardan biriga aylanayapti. U qayta ta’mirlangandan so‘ng IKAOning birinchi kategoriyasiga ega bo‘lgan aeroport g‘arbda ishlab chiqarilgan turli rusumdagi laynerlarni hamda sharqiy havo kemalari qabul qilish imkoniyatiga ega. Yangi aeroport soatiga 400 yo‘lovchini o‘tkazish imkoniyatiga ega. Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg, Simferopol va Qozon shaharlari bilan havo aloqalari ham o‘rnatilgan. Bu yerga Yevropa mamlakatlari va Yaponiyadan charter qatnovlar amalga oshiriladi. Aeroport xalqaro tashuvlarni amalga oshirgani uchun «Gabriel» va «Sita» bronlashtirish tizimiga kiritilgan. Eslatib o‘tamiz, 2012 yilning 9 oyi mobaynida "O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK xizmatlaridan 1 mln. 962 ming nafar yo‘lovchi foydalangan. Mahalliy havo yo‘nalishlaridagi qatnovlar hajmi o‘tgan yilning shu davri bilan solishtirganda 16,4% ni tashkil etgan.

**«BUXORO» Xalqaro aeroporti.** Buxoro shahri sharq arxtekturasining dunyoda eng qadimiy tarixiy obidalaridan biri bo‘lib, Markaziy Osiyoning mashhur sayyohlik markazidir. 1999 yilda takomillashtirish dasturi amalga oshirilgandan so‘ng unga «xalqaro» maqomi berildi. 1997 yilda chet ellik

sayyohlarga mo‘ljallanib qurilgan zamonaviy aerovokzal soatiga 150 yo‘lovchini qabul qilish imkoniyatiga ega. Zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan uchib kelish va ketish hamda keng kutish zallari, bufet, do‘kon, tibbiy xizmat ko‘rsatish shahobchasi, yuk saqlash kameralari yo‘lovchilar xizmatida. «Buxoro» xalqaro aeroporti g‘arbda va sharqda ishlab chiqarilgan barcha rusumdagi havo kemalarini (Yak-40, An-24, Boing -767/757/747) qabul qilish imkoniyatiga ega.

**«URGANCH» Xalqaro aeroporti.** Urganch shahri Xorazm viloyatining markazidir. U butun dunyoga o‘z hududida – O‘rta asr sharq arxitekturasi durdonalaridan yodgorlik, 2500 yillik tarixga ega bo‘lgan va shu vaqtgacha o‘zning ilk chiroyi va salobatini yo‘qotmagan Xiva shahri joylashgani uchun ham mashhurdir. “Urganch” aeroporti chet ellik sayyohlar uchun qadimiy shahar darvozasi hisoblanadi.

Takomillashtirish loyihasi amalga oshirilgandan so‘ng aeroport IKAOning birinchi kategoriyasi va xalqaro maqomga ega bo‘ldi. Hozir aerovokzalning yangi binosi soatiga 300 kishiga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Keng kutish zali, bar, bufet, tibbiy xizmat ko‘rsatish va valyuta almashtirish punktlari, yodgorliklar do‘koni yo‘lovchilar xizmatida. Qayta ta’mirlangandan so‘ng uchish-qo‘nish yo‘laklari A-310, Boing-767, 757, 747, RJ-85, Tu-154, Il-76, Il-96 havo kemalarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Havodagi harakatni boshqarish tizimi ham takomillashtirildi. Urganch kundalik qatnovlar orqali Toshkent bilan bog‘langan.

**"TERMIZ" Xalqaro aeroporti.** Xalqaro Termiz aeroporti "O‘zbekiston havo yo‘llari" Milliy aviakompaniyasi tarkibiy qismiga kiradi. U bir soatda 100ta yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Aeroport kunu-tun ishlab, sharq va g‘arbda ishlab chiqarilgan turli rusumdagi havo kemalarini (A-310, Boing-737,747,757,767, RJ-85) hamda vertolyotlarni qabul qiladi.



**8-rasm. "URGANCH" xalqaro aeroportining tashqi ko‘rinishi.**




**9-rasm. «NAVOIY» xalqaro aeroportining tashqi ko‘rinishi.**




**10-rasm. “TERMEZ” xalqaro aeroportining tashqi ko‘rinishi.**

Bu yerdan Toshkentga muntazam qatnovlar, Yevropa va Osiyoga charter qatnovlar amalga oshiriladi. Hozirda tashuvlar hajmi borgan sari ortib borayapti.

**«NAVOIY» Xalqaro aeroporti.** «Navoi» xalqaro aeroporti 1962 yilda cho‘l o‘rtasida barpo etilib, uning hududi gullayotgan oazisga aylantirilgan.

Navoiy aeroporti hududida bir kecha-kunduzda 300 tonna yukka ishlov beruvchi omborlarning ish faoliyati ta’minlandi. Bir qator aeroportlar infratuzilmasi yangilandi. Jahon standartlariga javob beradigan aeronavigatsiya qurilmalari keltirib o‘rnatildi.Hozirgi kunda “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi 20 dan ortiq mamlakatning 45 dan ortiq aeroportiga muntazam parvozlarni amalga oshirib kelmoqda.

Aeroport «AN-24», «YAK-40» hamda «IL-114», «RJ-85» kemalarini qabul qilish imkoniyatiga ega. Aeroport barcha kerakli zamonaviy texnik uskunalar bilan jihozlangan. Deputatlar va VIP yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish zallari, ona va bola xonasi, bufet, tibbiy punkt joylashgan zamonaviy aerovokzal yo‘lovchilar xizmatida. Bu yerda aloqa va transport xizmatlari ham ko‘rsatiladi.

Havo kemalari parkini yangilash, ya’ni G‘arb mamlakatlarida ishlab chiqarilgan, jahon standartlariga javob beradigan tejamkor 10 ta zamonaviy samolyot harid qilish bo‘yicha loyihaning qiymati 814,6 million dollarni tashkil etadi, ushbu mablag‘ning 60,9 million dollari korxona mablag‘laridan, 230,9 million dollari O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘laridan, 218,5 million dollari xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan tashkil topishi ko‘zda tutilgan[8].

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” mavzusidagi ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. **– T.: Iqtisodiyot. - 2012. – 282 bet.** Mamatqulov X.M. «Turizm infratuzilmasi» Ma’ruzalar kursi. SamISI. 2009.,

## 2.2. “O‘zbekiston havo yo‘llari” MAKning hamkorlik aloqalari.




**11-rasm.**

Ushbu ibora O‘zbekistondan Yevropa, Osiyo va Amerikaning qirqdan ziyod shahriga parvoz qilayotgan samolyotlar salonida muntazam jaranglaydi. G‘arbda Nyu-Yorkdan sharqda Tokioga qadar, shimolda Tyumendan janubda Singapurgacha xalqaro aeroportlarning uchish maydonlarida “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi ramzi tushirilgan zamonaviy samolyotlarni uchratish mumkin. Jadal, barqaror va izchil rivojlanib borayotgan ushbu aviatashuvchi mustaqil O‘zbekistonning timsollaridan biridir.




**Har doim talab darajasida bo‘lish**

**12-rasm**.

Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, jahonda turli darajadagi 1300 dan ziyod davlat va xususiy aviakompaniya mavjud. 470 dan ortiq aviatashuvchi xalqaro havo qatnovlarini amalga oshirsa, shuning 250 ga yaqini muntazam xalqaro aviareyslarni yo‘lga qo‘ygan.

Prezidentimiz Islom Karimovning farmoniga binoan 22 yil avval tashkil qilingan “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi jiddiy raqobat sharoitida jahon aviabozorida o‘zining munosib o‘rnini egalladi. Xavfsizlik, qulaylik va yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish kompaniyaning o‘ziga xos tashrif qog‘oziga aylangan. O‘tgan yili Britaniyaning mustaqil SkyTrax reyting agentligi tomonidan milliy aviakompaniyamiz ko‘rsatayotgan xizmatlar sifatining auditi yakunlari ham buni yana bir bor tasdiqladi.

“ Kompaniyamiz erishayotgan barcha yutuqlar – bu davlatimiz rahbarining doimiy e’tibor va g‘amxo‘rligi, texnologik parkni muntazam modernizatsiya qilish, G‘arbda va mamlakatimizda ishlab chiqarilgan laynerlarga texnik xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish, yer usti infratuzilmasini takomillashtirish, havo harakatini boshqarish tizimini tubdan isloh etish, mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan aniq maqsadli va serqirra ishlar samarasidir, – deydi “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi bosh direktorining birinchi o‘rinbosari Akmal Akbarov.

Milliy aviakompaniyaning ishlab chiqarish va moliyaviy ko‘rsatkichlari yil sayin o‘sib, ish samaradorligi ortib bormoqda. 2014 yilning birinchi yarmida 11,4 mingdan ziyod parvoz amalga oshirilib, 1,2 million nafardan ortiq yo‘lovchi, 20 ming tonnadan ko‘proq yuk, jumladan, pochta tashildi. Bunga aviabozor talablariga tez moslashish, yo‘nalishlar geografiyasini kengaytirish va parvozlar sonini ko‘paytirish evaziga erishilmoqda. Joriy yilda Singapurga havo qatnovi yo‘lga qo‘yildi, Termizdan Sankt-Peterburgga, Urganchdan Volgogradga aviayo‘nalishlar ochildi, parvozlar soni ko‘paydi. Masalan, Toshkent-Riga-Nyu-York va Nyu-York-Riga-Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha reyslar haftada ikki marta – payshanba va yakshanba kunlari amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz turizm salohiyatini yuksaltirish maqsadida Frankfurt, Parij va Milan shahridan havo qatnovi Urganch shahri orqali amalga oshirilmoqda.




**Mamlakatimizning havo bandargohlari**

**13-14-rasmlar.**

Mavjud texnik bazani yangilash, xususan, yo‘lovchi va yuk terminallari infratuzilmasini takomillashtirish milliy aviakompaniyamiz faoliyatining istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Prezidentimizning doimiy e’tibori samarasida mamlakatimiz aeroportlarida uchish-qo‘nish yo‘laklari rekonstruksiya qilindi, aerovokzal komplekslarining tashqi ko‘rinishi deyarli to‘liq yangilandi, yo‘lovchi terminallari soni ko‘paytirilib, xizmat ko‘rsatish texnologiyasi yaxshilandi. Yangi uchish-qo‘nish yo‘laklari har qanday rusumdagi samolyotlarni, terminallar esa oqimi tobora ko‘payib borayotgan
yo‘lovchilarni qabul qilishga qodir.




“Toshkent” aeroportida bir soatda 400 yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatadigan mahalliy havo yo‘llarining yangi aerovokzali barpo etildi. Xalqaro aviatashuv terminalida yo‘lovchilar uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratildi. Bu yerda yuqori darajadagi qulayliklarga ega biznes-zal, ona va bola xonasi, tibbiyot punkti, tamaddixona, «Duty-free» do‘koni yo‘lovchilarga sifatli xizmat ko‘rsatmoqda. Ayni paytda aeroportning VIP va CIP zallari kapital ta’mirlanmoqda.

«Navoiy» va «Buxoro» aeroportlarida barcha qulayliklarga ega va yuqori texnologiyali uskunalar bilan jihozlangan yangi yo‘lovchi terminallari samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. “Urganch” xalqaro aeroportida 2011 yilda yo‘lovchilarni qabul qiladigan yangi zal, bir oy avval esa soatiga 300 kishiga xizmat ko‘rsatish

quvvatiga ega yo‘lovchi terminali ishga tushirildi. Xorazm viloyatiga kelayotgan sayyohlar uchun vohaning transport imkoniyatlari, bu yerdagi mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish joylari to‘g‘risida va boshqa foydali ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan axborot xonasi tashkil etildi. Mustaqillik bayrami arafasida “Farg‘ona” aeroportida ham yangi aerovokzal foydalanishga topshiriladi.

Aeroportlar infratuzilmasini rivojlantirishga doir chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizning 11 aeroporti xalqaro maqomga ega bo‘ldi. Shu yilning fevral oyida «Toshkent», «Buxoro», «Samarqand», «Nukus», «Qarshi», «Termiz», «Urganch», «Andijon», «Farg‘ona», «Navoiy», «Namangan» aeroportlari boshqa bo‘linmalar qatori ISO 9001:2008 xalqaro sifat standarti talablariga muvofiqlik bo‘yicha dastlabki resertifikatsiya auditidan o‘tdi.

Mamlakatimiz aeroportlarining turli xalqaro tanlovlarda muvaffaqiyat qozonayotgani ularning samarali faoliyat ko‘rsatayotganidan dalolat beradi. Joriy yilning iyun oyida uchta aeroport 2013 yilgi faoliyati yakunlari bo‘yicha “MDH mamlakatlaridagi eng yaxshi aeroport” tanlovining turli nominatsiyalarida g‘olib bo‘ldi. Misol uchun, yiliga yuz mingdan yarim million nafargacha yo‘lovchi tashiyotgan “Buxoro” havo bandargohi “Barqaror rivojlanayotgan aeroport” maqomiga sazovor bo‘ldi. “Samarqand” va “Urganch” xalqaro aeroportlari “Ishlab chiqarishni rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hissasi” nominatsiyasida g‘olib chiqdi.

Xalqaro ekspertlar O‘zbekiston aeroportlarini xavfsizlikni ta’minlash nuqtai nazaridan ishonchli deb e’tirof etmoqda. Ularning barchasida gaz analizatorlari va metall izlash moslamalari, skanerlar ishlab turibdi, yanada takomillashgan va ishonchli texnika joriy etilayotir. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan patrul xizmatining yo‘lga qo‘yilgani, hududlarni videokuzatuv va maxsus texnik tekshiruv vositalari bilan ta’minlash aeroportlarda xavfsizlik darajasini yuksaltirishga yordam bermoqda.

**Parvozlar qulayligi yo‘lida**

“O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy kompaniyasi aviaparkini bosqichma-bosqich yangilash dasturi amalga oshirilmoqda. Yevropaning O‘zbekiston milliy

aviakompaniyasi ramzi tushirilgan dastlabki «Airbus» samolyoti mamlakatimizga 1993 yil, Amerikaning «Boeing» havo kemasi esa 1996 yilda keltirildi. Ular nafaqat xalqaro, balki mahalliy yo‘nalishlarga parvoz qilgan Il-62, Il-86, Tu-154, Yak-40, An-24 samolyotlari o‘rnini egallamoqda. So‘nggi uch yilda aviakompaniya parki jahon aviatsiya sanoatining yetakchi korxonalarida ishlab chiqarilgan zamonaviy, qulay va tejamkor «Airbus-320-200» va «Boeing 767-300-ER» havo kemalari bilan to‘ldirildi.

2016 yilda O‘zbekistonga ikkita «Boeing 787 Dreamliner»ning keltirilishi mamlakatimizda aviatashuvlar rivojlantirish tarixidagi eng muhim voqea bo‘ladi. «O‘zbekiston havo yullari» uzoq masofaga parvoz qiladigan ushbu qulay va shinam laynerlarni harid qilish bo‘yicha «Boeing – Fuqaro samolyotlari» kompaniyasi bilan shartnoma imzolagan dastlabki aviakompaniyalardan biridir. Milliy aviakompaniyamiz MDH hududida ushbu yangi havo kemalaridan birinchi bo‘lib foydalanadi.

Mamlakatimiz hududlari va xorijiy davlatlarga o‘ttiz yildan bo’yon parvoz qilaman, – deydi tadbirkor Shavkat Mirzayev. – O‘zbekiston aholisi chet elga chiqish uchun, garchi oxirgi manzil Toshkentdan janubda joylashgan bo‘lsa-da, albatta shimoliy yo‘nalish – Moskvaga uchishi shart bo‘lgan vaqtlar hali-hamon esimda. Bu ancha noqulayliklar tug‘dirib, qo‘shimcha harajat talab etardi. Mustaqilligimiz sharofati bilan yangi yo‘nalishlar tashkil etilib, xorijga nafaqat Toshkent, balki mamlakatimizning boshqa shaharlaridan ham parvozlar amalga oshirilmoqda, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanmoqda.

«O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi samolyotlariga chiqqan yo‘lovchilar qulay, shinam muhitga tushadi, alohida e’tirof va g‘amxo‘rlikdan bahramand bo‘ladi. Havo kemalari barcha zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Videoproyektorlar orqali badiiy, hujjatli filmlar, musiqiy kliplar, multfilmlar namoyish etiladi. “Boeing” samolyotlarida alohida monitorlar mavjud bo‘lib, yo‘lovchi o‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan dasturni tanlashi mumkin. Bu monitorlarda samolyot yo‘nalishi va parvoz haqidagi («air-show» tizimi) axborotni kuzatish

mumkin. Uzoq masofaga uchadigan xalqaro yo‘nalishlarga parvoz chog‘ida birinchi va ikkinchi klass yo‘lovchilari «iPad» bort planshentidan bepul foydalanishi, maxsus «Sky Shop» jurnal-katalogida o‘ziga yoqqan mahsulotni harid qilishi mumkin.

Tamaddi qilishga ham alohida e’tibor qaratilgan. «Ketring» davlat unitar korxonasi direktori Bo‘ron Ergashevning aytishicha, ishlab chiqarish quvvatlari barcha aviayo‘nalishlarga parvoz qiladigan samolyotlarda ming porsiya issiq va yaxna taom tayyorlash, turli ichimlik va mevalar taqdim etish imkonini beradi. Taomlar va mahsulotlar sifati muntazam nazorat qilinadi, 300 turdan ortiq taom “Global test” muvofiqlik sertifikatiga ega. Mijozlar aviachipta sotib olish yoki bron qilishda yoshi va e’tiqodini hisobga olgan holda maxsus taomga buyurtma berishi mumkin. Samolyotlarda vegetarian, bolalar, mevali va kosher taomlari ham taklif etiladi.

Ko‘p marotaba parvoz qiladigan yo‘lovchilar uchun milliy aviakompaniya alohida «UzAirPlus» dasturi – parvozning har bir kilometri uchun ball to‘plash tizimini taklif qiladi. Uning ishtirokchilari mukofot sifatida sovrinli parvoz qilish, xizmat ko‘rsatish toifasini oshirish, “O‘zbekiston havo yo‘llari” aviakompaniyasi reyslarida ro‘yxatdan o‘tish chog‘ida biznes-xoll xizmatlaridan foydalanish imkoniga ega bo‘ladi. Eng ko‘p ball to‘plagan ishtirokchilar qo‘shimcha imtiyoz va xizmatlardan foydalanishi mumkin, shuningdek, CIP zalida ro‘yxatdan o‘tish va qo‘shimcha yukni bepul olib o‘tish imkonini yaratadigan kumush yoki oltin kartochka beriladi.

### Kadrlar masalasi alohida e’tiborda

Dunyoning ko‘plab aviakompaniyalari O‘zbekiston uchuvchilar tayyorlash maktabini eng nufuzli maktablardan biri sifatida e’tirof etmoqda. Zero, ushbu maktabda ko‘p yillar davomida “ustoz-shogird” an’analari asosida, nazariya bilan amaliyot chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Istiqlol yillarida boshlangan aviaparkni zamonaviy samolyotlar bilan to‘ldirish jarayoni havo flotini modernizatsiya qilish, uchuvchilarni tayyorlashga nisbatan talablarni

kuchaytirishni taqozo etdi. Mamlakatimizga yangi samolyotlarning keltirilishi munosabati bilan dastlabki bir guruh aviatsiya xodimlari Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH, Fransiya, Janubiy Koreyadagi eng yaxshi o‘quv-mashg‘ulot markazlarida ham nazariy, ham amaliy tayyorgarlikdan o‘tdi.

O‘zbekiston Qahramoni, “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi “Boeing” uchuvchilar otryadining uchuvchi-yo‘riqchisi Zarxo‘ja Saidazimov faoliyati bunga yaqqol misoldir. Z.Saidazimov 1992 yili milliy aviakompaniyamiz tashkil etilgandan so‘ng Toshkent-Bahrayn-Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha “Tu-154” samolyotida birinchi parvozni amalga oshirdi. So‘ngra xorijlik hamkasblari bilan birgalikda «Airbus» va «Boeing» laynerlarida parvoz qilishni o‘zlashtirdi. Ayni paytda, tajribali uchuvchi sifatida ko‘p yillardan buyon yoshlarga mahorat sirlarini o‘rgatib kelmoqda.

2012 yilda jahon bo‘ylab taqdimot turi doirasida Toshkentga dastlabki «Boeing 787 Dreamliner» kelib qo‘nganda, Amerika kompaniyasi va «O‘zbekiston havo yullari» vakillari samolyotning texnik xususiyatlarini sinab ko‘rish uchun unda bir soat parvoz qildi. Laynerni boshqarish milliy aviakompaniyamizning eng yaxshi uchuvchilaridan biri, Z.Saidazimovning tajribali shogirdlaridan Kompaniya uchuvchilar kompleksi direktori Alisher Karimovga ishonib topshirilgan edi. «Boeing – Fuqaro samolyotlari» kompaniyasining bunday qarori uchuvchilarimiz mahoratiga bo‘lgan chuqur hurmatdan dalolat beradi.

Yaqin vaqtlar ichida bunday uchuvchilar milliy aviakompaniyamizning o‘zida xalqaro sertifikatga ega va barcha zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlangan o‘quv-mashg‘ulot markazida tayyorlanadi. Bundan tashqari, uchuvchilarning parvoz qilish layoqatini saqlash va buning uchun ularning zarur malakasini ta’minlash maqsadida kompaniyaning yangi Mashg‘ulotlar kompleksida uchuvchilar “Boeing-757/767”, “A-320” havo kemalarining zamonaviy trenajyorlari, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan Il-114-100 samolyotining noyob «Full-flight» simulyatori yordamida real holatlarga yaqinlashtirilgan sharoitlarda parvoz qilishni o‘rganmoqda.

Parvozlar xavfsizligi va murakkab aviatsiya texnikasidan foydalanishga nisbatan xalqaro talablar havo qatnovini boshqarishning yangi tizimini joriy etishni taqozo etayotir. «Toshkent» xalqaro aeroportida faoliyat ko‘rsatayotgan Havo harakatini boshqaradigan avtomatlashtirilgan markaz xalqaro standartlarga mos zamonaviy dispetcherlik va navigatsiya tizimlari bilan jihozlangan. «O‘zaeronavigatsiya» markazi O‘zbekiston havo kengligida parvoz qiladigan samolyotlar harakatini boshqarish, yangi havo yo‘laklarini tashkil etish imkonini berayotir. O‘zbekiston osmonida parvoz qilayotgan har bir avialayner minglab aviatsiya mutaxassislari bilan yaqin hamkorlikda havo harakatini boshqarayotgan aviadispetcherlar nazoratida bo‘ladi.

**Davr sinovidan o‘tgan mustahkam ishonch**

Bugun butun dunyoda aviatsiya xavfsizligi, aviatashuvlar ishonchliligi va sifatiga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Bu borada yo‘lovchilar talabini qondirish va aviatashuvchilar manfaati o‘rtasidagi nisbatga xalqaro darajada rioya etish zarur. «O‘zbekiston havo yo‘llari» o‘z faoliyatida parvozlar va aviatsiya xavfsizligiga alohida e’tibor qaratmoqda. Aviakompaniyamiz ushbu sohadagi yutuqlari uchun Xalqaro aviatsiya xavfsizligi fondi va Notijorat hamkorlik tashkilotining «Parvozlar xavfsizligi» mukofotiga sazovor bo‘lgani, kompaniyaning xavfsizligi va ishonchliligini tasdiqlovchi IOSA auditlaridan muvaffaqiyatli o‘tgani ham shundan dalolat beradi.

Havo transportida ishlash – bu har kuni yuksak mas’uliyat, chuqur bilim, vazminlik, eng murakkab vaziyatlarda ham zudlik bilan to‘g‘ri qaror qabul qilishni talab etadigan mashaqqatli mehnatdir. Nafaqat parvozlar xavfsizligi va havo parkining texnik jihatdan sozligi, balki yong‘inga qarshi himoya, avariya-qutqaruv va tibbiy ta’minot, boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni bajarish uchuvchilar, muhandislar, texniklar va boshqa mutaxassislarning mahorati, fidokorona mehnatiga bog‘liqdir. Aviaxodimlar sa’y-harakatlari bosh vazifani bajarish, ya’ni parvozlar xavfsizligi va ishonchliligini, aviatashuvlar muntazamligi va yo‘lovchilarga yuksak darajada xizmat ko‘rsatishni ta’minlashga qaratilgan.







**III-BOB. Turistlarga havo transportida xizmat ko‘rsatishning xorij tajribalari**

**2.1. Xitoy havo transporti orqali turistlarga xizmat ko’rsatishning o’ziga xos xususiyatlari**

**Xitoy Xalq Respublikasi** — Markaziy va Sharqiy Osiyoda joylashgan davlat. Dunyoda aholisi eng ko’p va maydoni jihatidan eng yirik davlatlardan biri. Sharqda Tinch okeanning Sariq, Sharkay Xitoy va Jan. Xitoy dengizlari bilan o‘ralgan. Maydoni 9,6 mln. km². Aholisi 1 mlrd. 292 mln. 750 ming kishi (2003). Poytaxti — Pekin shahri. Ma’muriy jihatdan 23 provinsiya (Xitoy Taypeyi ham shu hisobga kiradi), 5 muxtor respublika va markazga bo‘ysinuvchi 4ta shahar (Pekin, Shanxay, Tyendzin, Chunsin)ga bo‘linadi.

**Aholisi.** Xitoy — ko'p millatli davlat. Jami aholining 95% i xitoylar; qolgan qismi turli til guruhi va oilalariga mansub bo‘lgan 56 xalqdan iborat. Xitoylarning ko’pi mamlakatning sharqiy qismida yashaydi. Xueylar (7 mln.ga yaqin) ham xitoy tilida so’zlashadi. Xitoyning shimoliy g‘arbida turkiy tillar guruhiga mansub xalqlar — uyg‘urlar, qozoqlar, qirg‘izlar, salorlar va b., shimoliy va shimoliy

sharqidagi dasht va chala cho‘llarda mongol guruhiga kiruvchi xalqlardan mongollar, dunsyanlar, tular,
shimoliy sharqida tungus manjur xalqlari, g‘arbi (Tibet) va janubiy g‘arbida Tibet birma xalqlari, janubida tai tillarida so‘zlashuvni xalqlar va boshqalar yashaydi. Sintszyanning janubiy g‘arbida pomir tojiklari ham bor.

Dindor xitoylar buddizm (shim. tarmog‘i), daosizm va konfutsiychilikka e’tiqod qiladi. Tibetlar va mongollarning dini — buddizm lamaizm. Xueylar va turkiy guruhga kiruvchi xalqdlarning ko’pchiligi islom dinining sunna mazhabiga e’tiqod qiladi (pomir tojiklari ismoiliya mazhabida). Rasmiy til — xitoy tili. Yirik shaharlari: Shanxay, Pekin, Tyantszin, Lyuyda, Uxan, Chunsin va boshqalar.

**Transporti.** Temir yo’l transportning asosiy turi. Ularning uzunligi 73 ming km. Xitoyning sharqiy portlari temir yo’l orqali Mongoliya, Rossiya, Markaziy Osiyo davlatlari, Eron va Yevropa mamlakatlari bilan bog‘langan. Avtomobil yo‘llari uzunligi 1,278 mln. kilometr. So‘nggi yillarda tez yurar avtomobil yo‘llari qurish rivojlangan. Ularning uzunligi 8733 km.

Ichki suv yo‘llarining uzunligi 150 ming km dan ortiq. Yirik dengiz portlari: Shanxay, Dalyan, Sinxuandao, Sindao, Guanchjou (Xuanpu bilan), Tyantszin (Singan bilan). XXRning ko‘p shaharlari jahondagi yirik shaharlar havo yo‘llari bilan bog‘langan.

## Havo transporti

1978 yildan boshlab, Xitoy havoyo’llari yildan yilga sezilarli takomillashib borganini ko'rdik. 2003 yil oxiriga kelib, jami 1.176 ichki va xalqaro havo yo'llari Xitoyda faoliyat yuritib kelgan.

Xitoyda havo tashuvlardan 980 ichki, 130 xalqaro va 24 mintaqaviy havo tashish liniyalari mavjud. Kattaligi va zichligi bo’yicha Pekin, Shanxay va Guanchjou havo yo'llari ajralib turadi. Xalqaro chiziqlar bo’yicha Pekin xalqaro bosh nuqtasi hisoblanadi. Ichki havo transport jadal rivojlanmoqda va butun mamlakatni qamrab olgan. Eng yaxshisi katta Xitoy kompaniyalari tomonidan

uchish kerak, zo’r servis va yuqori darajada xavfsizlikni ta’minlaydi. Ichki yo'nalishlarda chiptalari ko'pincha faqat oldindan sotiladi chunki ichki havo yo’nalishlari bo’yicha uchish keskin bo'lib turadi. Kechikishlar odatda tez bo’lib turadi va ushlanib qolish juda yuqori darajada bo'lishi mumkin. Agar chipta sotib olmoqchi bo’lsak, maxsus shakldagi blanka to'ldirish kerak. Aviatashuv yuqori narxda, aeroporti solig’i uchun (50 yuan) to'lanadi. Agar samolyotga kech qolsa, keyingi samolyotga bo’sh joy bo’lsa kompaniya yo'lovchini qo'yishi shart.

2010 yilda Xitoyda samolyot umumiy soni 1580ni (2006 yilda 863 edi) tashkil etgan bo’lsa, 2025-yilga borib taxmin bu ko'rsatkich 4000ga ortadi.

Pekin xalqaro aeroporti Pekin shahri markazidan 30 kilometrda joylashgan bo’lib, Xitoyning eng yirik va dunyoda kattaligi bo’yicha ikkinchi o’rinda turadi. hisoblanadi. Airportda kompleks xizmat ko’rsatiladi, bepul WI-FI (siz aeroportda hisob raqami va parolni qabul qilish uchun pasportingizni ko'rsatishingiz mumkin), banklar, kafelar, restoranlar va boj olinmaydigan savdo do'konlari, biznes markazi (kserokopiya, faks, internet va h.k.), axborot kiosklar va tibbiy klinikalar, barcha bu Beijing Capital xalqaro aeroportida mavjud. U erda ko’plar ikki tilda so’zlashadi, agar biron-bir muammo bo'lsa, yordam uchun aeroport xodimlaridan so'rashingiz mumkin. Ularning aksariyati ingliz tilida gapira oladi.

Pekinning Nan-Yuan aeroporti Fentayda joylashgan bo’lib, Tyananmendan 15 km uzoqlikda joylashgan bo’lib Pekinning birinchi aroporti bo’lgan. Faqat bir nechta ichki avialiniyalari mavjud, yani Uysin, Tszyamusi, Tsintetsin, Dalyan, Xarbin, Xaylar, Chendu va Xux-xoto.

**Aviakompaniyalari**

Air China (Эйр Чайна) , Air Macau (Эйр Макао) , Cathay Pacific (Катей Пасифик) , Chengdu Airlines (Чэнду Эйрлайнс) , China Eastern Airlines (Чайна Истерн Эйрлайнс) , China Express Airlines (Чайна Экспресс Эйрлайнс) , China Southern Airlines (Чайна Саутерн Эйрлайнс) , China United Airlines (Чайна Юнайтед Эйрлайнс) , Chongqing Airlines (Чунцин Эйрлайнс) , Dragonair

(Драгонэйр) , Hainan Airlines (Хайнань Эйрлайнс) , Hongkong Airlines (Гонконг Эйрлайнс) , Hongkong Express Airways (Гонконг Экспресс Эйрвейс) , Joy Air (Джой Эйр) , Juneyao Airlines (Джуньяо Эйрлайнс) , Lucky Air (Лаки Эйр) , Okay Airways (Окэй Эйрвейс) , Shandong Airlines (Шаньдун Эйрлайнс) , Shanghai Airlines (Шанхай Эйрлайнс) , Shenzhen Airlines (Шэньчжэнь Эйрлайнс) , Sichuan Airlines (Сычуань Эйрлайнс) , Spring Airlines (Спринг Эйрлайнс) , Tianjin Airlines (Тяньцзинь Эйрлайнс) , West Air (Вест Эйр) , Xiamen Airlines (Сямынь Эйрлайнс) .

| Пекин[PEK]-Chengdu | **$95 Июнь.27** | **$118 Июнь.28** | **$106 Июль.1** | Пекин[PEK]-Kunming | **$119 Июнь.26** | **$119 Июнь.27** | **$119 Июнь.28** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Пекин[PEK]-Hangzhou | $101 Июнь.28 | $80 Июнь.29 | $80 Июнь.30 | **Пекин[PEK]-Shenzhen** | $114 Июль.2 | $114 Июль.3 | $114 Июль.4 |
| Пекин[PEK]-Shanghai Pudong[PVG] | -- | -- | -- | **Пекин[PEK]-Qingdao** | $62 Июнь.25 | $62 Июнь.27 | $62 Июнь.28 |
| Пекин[PEK]-Shanghai Hongqiao[SHA] | $75 Июнь.28 | $75 Июль.5 | $75 Июль.13 | **Пекин[PEK]-Xian** | $93 Июнь.26 | $93 Июнь.27 | $93 Июнь.28 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Шанхай[SHA]-Chengdu** | $132 Июнь.28 | $119 Июнь.29 | $132 Июль.2 | **Шанхай[SHA]-Shenzhen** | $92 Июнь.26 | $92 Июнь.27 | $92 Июнь.29 |
| **Шанхай[SHA]-Guangzhou** | $85 Июнь.27 | $85 Июнь.29 | $85 Июль.1 | **Шанхай[SHA]-Beijing[PEK]** | $75 Июнь.29 | $75 Июль.1 | $75 Июль.6 |
| **Шанхай[SHA]-Xiamen** | $79 Июнь.25 | $79 Июль.7 | $79 Июль.9 | **Шанхай[SHA]-Xian** | $108 Июнь.26 | $108 Июнь.27 | $108 Июнь.29 |
| **Шанхай[SHA]-Qingdao** | $74 Июнь.27 | $74 Июнь.28 | $61 Июнь.29 | **Шанхай[SHA]-Sanya** | $155 Июнь.28 | $124 Июнь.29 | $155 Июль.21 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Гуанчжоу-Hangzhou** | $69 Июнь.25 | $69 Июнь.27 | $69 Июнь.28 | **Гуанчжоу-Beijing[NAY]** | -- | -- | -- |
| **Гуанчжоу-Shanghai Pudong[PVG]** | -- | -- | -- | **Гуанчжоу-Kunming** | $83 Июнь.28 | $83 Июнь.29 | $83 Июнь.30 |
| **Гуанчжоу-Chengdu** | $106 Июнь.28 | $103 Июль.1 | $103 Июль.3 | **Гуанчжоу-Shanghai Hongqiao[SHA]** | $85 Июнь.27 | $85 Июнь.28 | $85 Июнь.29 |
| **Гуанчжоу-Beijing[PEK]** | $124 Июнь.27 | $124 Июнь.28 | $124 Июнь.29 | **Гуанчжоу-Guilin** | $54 Июнь.28 | $49 Июнь.29 | $54 Июнь.30 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Шэньчжэнь-Hangzhou** | $83 Июнь.26 | $83 Июнь.27 | $83 Июнь.28 | **Шэньчжэнь-Chengdu** | $116 Июнь.28 | $93 Июль.1 | $105 Июль.2 |
| **Шэньчжэнь-Shanghai Hongqiao[SHA]** | $92 Июнь.25 | $92 Июнь.29 | $92 Июнь.30 | **Шэньчжэнь-Xian** | $121 Июнь.26 | $121 Июнь.27 | $121 Июнь.28 |
| **Шэньчжэнь-Shanghai Pudong[PVG]** | $92 Июнь.27 | $92 Июнь.28 | $92 Июль.1 | **Шэньчжэнь-Beijing[NAY]** | -- | -- | -- |
| **Шэньчжэнь-Beijing[PEK]** | $114 Июнь.25 | $114 Июнь.27 | $114 Июнь.29 | **Шэньчжэнь-Kunming** | $82 Июнь.28 | $82 Июнь.29 | $82 Июнь.30 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Xi''an-Shanghai Hongqiao[SHA]** | $83 Июнь.25 | $83 Июнь.27 | $83 Июнь.30 | **Xi''an-Beijing[PEK]** | $93 Июнь.26 | $93 Июнь.27 | $93 Июнь.28 |
| **Xi''an-Guilin** | $72 Июнь.25 | $80 Июнь.28 | $80 Июль.1 | **Xi''an-Kunming** | $64 Июнь.26 | $64 Июнь.27 | $74 Июнь.28 |
| **Xi''an-Guangzhou** | $98 Июнь.29 | $98 Июль.1 | $98 Июль.2 | **Xi''an-Shanghai Pudong[PVG]** | $83 Июнь.25 | $83 Июль.1 | $83 Июль.3 |
| **Xi''an-Shenzhen** | $108 Июнь.26 | $108 Июнь.27 | $108 Июнь.28 | | | | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Гуйлинь-Shanghai Hongqiao[SHA]** | -- | -- | -- | **Гуйлинь-Beijing[PEK]** | $118 Июнь.25 | $118 Июнь.26 | $118 Июнь.29 |
| **Гуйлинь-Shanghai Pudong[PVG]** | $106 Июнь.25 | $106 Июнь.26 | $106 Июль.2 | | | | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Чэнду-Shanghai Hongqiao[SHA]** | $158 Июнь.27 | $145 Июль.1 | $145 Июль.2 | **Чэнду-Guangzhou** | $118 Июнь.29 | $118 Июнь.30 | $118 Июль.1 |
| **Чэнду-Guilin** | $105 Июнь.28 | $126 Июнь.29 | $126 Июль.1 | **Чэнду-Beijing[PEK]** | $106 Июль.1 | $118 Июль.2 | $118 Июль.5 |
| **Чэнду-Shanghai Pudong[PVG]** | $132 Июнь.30 | $158 Июль.3 | $144 Июль.6 | **Чэнду-Shenzhen** | $127 Июнь.27 | $127 Июнь.29 | $127 Июнь.30 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Чэнду-Beijing [NAY] | -- | -- | -- | | | | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Ханчжоу-Shenzhen | $83 Июнь.26 | $83 Июнь.27 | $83 Июнь.28 | Ханчжоу-Guilin | $100 Июнь.25 | $90 Июнь.29 | $96 Июль.1 |
| Ханчжоу-Guangzhou | $69 Июль.1 | $69 Июль.2 | $69 Июль.3 | Ханчжоу-Chengdu | $131 Июнь.25 | $131 Июнь.27 | $144 Июнь.29 |
| Ханчжоу-Xian | $75 Июнь.27 | $72 Июнь.28 | $72 Июнь.29 | Ханчжоу-Kunming | $111 Июнь.26 | $111 Июнь.27 | $114 Июнь.28 |
| Ханчжоу-Beijing[PEK] | $101 Июнь.27 | $80 Июнь.29 | $80 Июнь.30 | | | | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Циндао-Shenzhen | $121 Июнь.26 | $121 Июнь.27 | $121 Июнь.28 | Циндао-Beijing[PEK] | $66 Июнь.27 | $51 Июнь.29 | $51 Июнь.30 |
| Циндао-Shanghai Hongqiao[SHA] | $61 Июнь.28 | $61 Июнь.30 | $61 Июль.1 | Циндао-Shanghai Pudong[PVG] | -- | -- | -- |
| Циндао-Hangzhou | $40 Июнь.25 | $40 Июнь.26 | $59 Июнь.27 | | | | |

## 3.2. Turizmda turistlarning xavfsizligini ta’minlashning huquqiy me’yorlari va turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlash.

Insonnnng hayoti xavfsizligini ta’minlash hamma vaqtda ham avvalo insonning o‘z hayotini muhofaza qilish, sog‘ligini saqlash, yashash istagi hissiyotlaridan kelib chiqadi.

O‘z hayoti xavfsizligining ertasini uylamaydigan, hozirgi zamonamizdan juda ko‘p yillar ilgari xavfli sharoitlarda tavakkaliga sayohatga chiqqan jasur kishilar (Kuk, Skott, Magellan, Maklay, Livingston, Dikson, Nikitin, Bering, Dejnyov, Prjevalskiy, Polo, Batuta, Lazerev, Kruznnggern, Kolumb, Vamberi va boshqalar) buyuk geografik tadqiqotchi sayyohlar bo‘lishgan. Lekin, vaqt o‘tishi bilan insonning yashashga bo‘lgan hissiyotlari ham o‘zgardi. Bunday hissiyotlar zamirida albatta qurqish hissi xukumronrok, ikkilanish hissi kuchliroq bo‘lganligi hisoblanadi.

Bir mamlakatdan o‘zga mamlakatlarga sayohat kelmokchi bo‘lgan turist albatta, bu mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat bilan qiziqadi, axborotlarni tuplaydi va ko‘ngli tinchligi, xavotir yo‘qligidan aniq bir qarorga keladi.

Turizmning xalqaro miqyosida rivojlanib borayotganligining sabablaridan biri xalqaro nizolarning pasayishi, qurollanishning susayganligi natijasida jahon xalqlarining biri-biriga qiziqishi, kurishishga, muloqot qilishga, xalqlarning tarixiy-ma’naviy madaniyatiga, xalklar yashayotgan davlatlar tabiatiga qiziqishi, intilishi hisoblanadi.

Turizmdagi xalqaro xuquq-me’yorlarini qabul qilgan mamlakatlarda turistlar ana shu xuquq-me’yorlarga ishonib, suyanib erkin harakat qilishadi. Shu bilan birga, turizm rivojlanishida turistik oqimlarning muayyan davlatda yoki davlatlarda ko‘payishi turizmdagi xalqaro tashkilotlarning faoliyatiga ham bog‘liq bo‘ladi. Har bir davlatda, shuningdek xalqaro miqyosda turizmni tashkil etishning eng muhim elementlaridan biri - turistlarning sog‘ligi va hayoti xavfsizligining ta’minlanishi hisoblanadi.

«Turizm xavfsizligi» kategoriyasi ko‘p qirrali tushunchadir. Uni sug‘urtalash yoki poxodlardagi shunchaki ehtiyotkorlik tushunchalariga tenglashtirish noto‘g‘ri. Uni kamida 2 ta tushunchalarda ko‘rib chiqish mumkin. Tor ma’noda turizmda xavfsizlik shaxsan turist va uning yuklarining xavfsizligi tushunilsa, keng ma’noda turizmda xavfsizlik - bu turistik jarayon qatnashchilarining muhim hayotiy qiziqishlarini ichki va tashqi xavflardan, hamda turizm rivojlanishida atrof-muhitni salbiy faktorlardan himoyalanganligi tushuniladi.

Boshqacha aytganda xavfsizlik - bu turist hayoti va sog‘ligini saqlashda maq+sadida, hamda unta va atrof muhitga (jamoaga, jamiyatga, davlatga, tabiatga) yetkazilgan zararlarni minimallashtirishga qaratilgan kompleks tadbirlardir. Dunyoda bo‘lib o‘tayotgan voqea hodisalar xavfsizlik masalasi qanchalik muhimligini ko‘rsatmokda va bu yerda nafaqat mamlakat ichki tarkibi, balki xalqaro darajada koordinatsiya talab etiladi. Turizmda xavfsizlikni ta’minlash

borasidagi qarorlar turistik faoliyat sohasidagi qonunchiliklarning asosiy tarkibi hisoblanadi. Xavfsizliklarning asosiy tarkibi hisoblanadi. Xavfsizlikni ta’minlash sohasida uni tor va kam ma’noda ko‘rib chiqish mumkin.

Tor ma’noda u bir necha respublika miqyosidagi xuquqiy aktlardan iborat:

- O‘zbekiston respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi qarori - 20 avgust 1999 yil № 830 – 1;
- O‘zbekiston respublikasi Prezidentining «O‘zbekturizm» MKni tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori 27 iyul 1992 y. № UP-447; O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O‘zbekturizm MK faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori 28 iyul 2004 yil № 360;
- O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Turizm faoliyatini litsenziyalashtirish to‘g‘risida»gi qarori 11 noyabr 2003 yil.

Kent ma’noda bu yerda umumiy tushunchaga (harakterga) ega xuquqiy me’yorlar (aktlar) kiritiladi, ularda turizm xavfsizligi to‘g‘risida ham alohida me’yorlar ko‘rsatilgan. M: «Sug‘urtalash to‘g‘risida», «Prokratura to‘g‘risida», «Sudlar to'g'risida» «Iste’molchilar huquqini ximoya kilish to‘g‘risida», «Chegara to‘g‘risida», «Pasport to‘g‘risida», «Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmaganlar to‘g‘risida», vazirliklar, xukumat va xokimiyat qarorlari, korxonalar qarorlari va b.

**Xavfsizlik 5 komponent asosida ta’minlanadi:**

1. Milliy qonunlar, xalqaro xuquqlar asosida turistlarni jo‘natuvchi yoki qabul qiluvchi davlat ularni himoya qilishi, panohiga olishi shart. Mamlakatda xorijiy turistlar kelishini nazorat qiluvchi, shaxsiy mulkini shaxsiyatini himoya qiluvchi, joriy-qidiruv ishlarini olib borish, sug‘urta to‘lovlarini to‘lash, valyuta ayriboshlash, madaniy qiymatga ega buyumlarni olib chiqish, axborot olishga imkoniyat, diplomatik va advokat ko‘magi va boshqa masalalarga tegishli xuquqiy - me’yoriy aktlar qabul qilinadi. Turistik firmalar litsenziya oladilar va mahsulotlarini «sertifikatlaydilar. Xalqaro me’yorlar aviatashuchilar, suv transporta kompaniyalari, avtokorxonalardan avariya va favqulodda hodisalarni oldini olish maqsadida yagona va universal standartni bajarishni talab qiladi.

**2. Makro darajadagi tashkiliy mexanizmlar asosida.** Bevosita va bilvosita turistlar xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq davlat va jamoa tarkiblari yordamida. Bular xuquqiy, tartibni saqlash kuchlari (militsiya, razvedka xizmatlari) jinoyatchilik rivojini oldini oladi; bojxona tarkibi - bular, eksport - import, kontrabanda bilan kurashadilar; **qutqaruv xizmatlari** (tog‘ hududlarida, o‘rmonlarda, yong‘indan, tibbiy, FHV va b.) - odamlarni tabiiy ofatlar va texnogen xavflari mavjud joylardan qutqaradilar. Tashqi ishlar vazirligi - vaqtinchalik kelgan mamlakatda har xil holatlarga tushib qolgan fuqarolarga konsullik himoyasi xizmatini taqdim etadilar. **Soliq qo‘mitasi** - iqtisodiy jinoyatchilikga qarshi kurashadi, Standartlashtirish xizmati - iste’molchilarga taklif etiladigan tovar va xizmatlar soni va sifatini nazorat qiladi. Prokuratura - davlat va shaxsga qarshi harakatlarni oldini oladi, veterinariya va sanepidemialogiya xizmati - sanitariya talablarini tekshiradi va b.

**3. Mikro darajadagi tashkiliy mexanizm asosida.** Bu sayohatchilarga bevosita xizmatlar taklif etuvchi turistik korxonalardir. M: Turfirma marshrutni sertifikatlaydi, sug‘urta kompaniyasi - sayohatchini sug‘urtalaydi, mehmonxona - yong‘in va epidemiologik xavfsizlikni ta’minlaydi, avtoransport korxonalari mashinalarning texnik ahvolini tekshiradi.

Mahalliy jamoa ham tashrif buyuruvchilarga xavfsizlikni ta’minlashlari shart. Buning uchun gidlar maxsus tayyorgarlikdan o‘tadilar, marshrutlar xavfsizligi (yo‘llar toshloq, zaharli o‘simliklar, yovvoyi hayvonlar) tekshiriladi, turistlarga maxsus moslamalar (palatka, qutqaruv jileti, dori-darmon) bilan ta’minlanadi, qutqaruvchilar va o‘rmon xizmatlari guruh kelgani va ularning bu yerda bo‘lish muddati haqida ogohlantiriladi va b.

Turistik o‘zi ham xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi shart. Ya’ni, uning hayoti va sog‘ligiga nimalar xavf solishini anglashi, jamoaga qabul qilingan talablarga rioya qilishi, xushyor bulishi shart.

**Iqtisodiy mexanizmlar asosida.** Xavfsizlikni ta’minlanishining iqtisodiy mexanizmlari turist hayoti va mulkiga zarar yetkazilganda uni qoplashni nazarda

tutadi. M: sug‘urta kompaniyasining sug‘urta fondi zaruriy summani to‘lashga qurbi yetadigan bo‘lishi kerak. Turist qora bozorga murojaat qilmasligi uchun banklar valyutani ayriboshlashlari zarur. Davlat muhim organlar faoliyatini kerakli darajada moliyalashtirishi zarurkim, ular o‘z vazifalarini ya’ni, yo‘qolgan turistlarni izlash, jinoyatchilardan himoyalash, kasalliklardan davolashlarni bajarishsin.

Ijtimoiy - madaniy va siyosiy darajada xavfsizlik deganda jamiyatni boshqa ijtimoiy qarashlardan - diniy, g‘oyaviy, udumlarning buzulishi va boshqalar nazarda tutiladi. Afsuski turizm alkogolizm, narkomaniya, fohishalik kabi salbiy oqibatlarga ham sabab bo‘lmokda. Bu yerda xalqaro terrorizmga qarshi kurash, diniy ekstremizmga qarshi davlatlararo koalitsiyalarni tuzish ham e’tiborga olinmoqda.

| Darajalar | Jalb qilingan strukturalar | Faoliyati |
|---|---|---|
| Birinchi: Davlat strukturalari | Ichki ishlar Vazirligi | Jamoa tartibini saklash, jinoyatchilik bilan kurashish, kriminal holatlarni nazorat qilish. Turistik politsiya. Xorijiy turistlarni olish, mamlakat bo‘ylab harakatlanish |
| | Milliy Xavfsizlik xizmati | Terroristlar, ekstremistlarga qarshi kurash, zalojnika (???) olishni oldini olish |
| | Soglikni Saqlash vazirligi | Epidemiyaga qarshi kurash, kasalliklarni oldini olish, aholi salomatligini nazorat qilish |
| | Favkulodda xodisalar vazirligi | Texnogen va tabiiy ofatlarni ogohlantirish va oldini olish, operativ - qutqaruv tadbirlarini o‘tkazish |
| | Bojxona qumitasi | Kantrabandagi qarshi kurash, eksport-import operatsiyalari jarayonida uyushgan jinoyatchilikni oldini olish, madaniy boyliklarni noqonuniy chiqib ketishga yo‘l quymaslik |
| | Tashqi ishlar vazirligi | Xorijdagi fukarolarga konsullik ximoyasini ta’minlash |
| | Mahalliy administratsiya | Ma’lum hududiy hodisani nazorat kilish |
| | Mahalliy administratsiya | Ma’lum xududiy xodisani nazorat kilish |
| Ikkinchi: | Gidro-meteorologiya | Tabiiy ofatlarni bashorat kilish, tabiiy ofatlar |

| | | |
|---|---|---|
| Davlat jamoa strukturalari | xizmatlari / seysmik stansiyalar | okibatini baxolash |
| | Ichki ishlar Vazirligi | Jamoa tartibini saklash, jinoyatchilik bilan kurashish, kriminal holatlarni nazorat qilish. Turistik politsiya. Xorijiy turistlarni olish, mamlakat bo‘ylab harakatlanish |
| | Milliy xavfsizlik xizmati | Terroristlar, ekstremistlarga qarshi kurash, zalojnika (???) olishni oldini olish |
| | Sog‘liqni Saqlash vazirligi | Epidemiyaga qarshi kurash, kasalliklarni oldini olish, aholi salomatligini nazorat qilish |
| | Favqulodda hodisalar vazirligi | Texnogen va tabiiy ofatlarni ogohlantirish va oldini olish, operativ - qutqaruv tadbirlarini o‘tkazish |
| | Bojxona qo‘mitasi | Kantrabandagi qarshi kurash, eksport-import operatsiyalari jarayonida uyushgan jinoyat-chilikni oldini olish, madaniy boyliklarni noqonuniy chiqib ketishga yo‘l quymaslik |
| | Tashki ishlar vazirligi | Xorijdagi fuqarolarga konsullik himoyasini ta’minlash |
| | Mahalliy Adminis -tratsiya | Ma’lum hududiy hodisani nazorat kilish |
| | Mahalliy administratsiya | Ma’lum hududiy xodisani nazorat qilish |
| | Gidrometeorologiya xizmatlari / seysmik stansiyalar | Tabiiy ofatlarni bashorat qilish, tabiiy ofatlar oqibatini baholash |
| Uchinchi: Davlat jamoa strukturalar OAV | Yong‘inga qarshi kurash xizmati | Yong‘inga qarshi tadbirlar |
| | Energiya nazorati kommunal xizmatlar telekommunikatsiya | Elektro tarmoqlar xavfsizligi, chiqindilarni olib chiqish, xavf tug‘ulganda operativ aloqani ta’minlash |
| | OAV | Xavflar haqida axborot berish |
| | Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari | Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash, xududda xavfsizlikni ta’minlash |
| | Turistik tashkilotlar | Gidlar-marshrutda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, menejer - turistik zanjir qatnashchilarini boshqarish, turlider - guruhda holatni nazorat qilish, muammoni boshqarish, korxonalarda xavf-sizlik - mexmonxonalarda, ob’ektlarda |
| | Jismoniy shaxslar | Turistlar shaxsiy xavfsizlikka rioya qiladilar, muammoni oldini olish uchun |

1-jadval.

Turizmning xalqaro xavfsizligidagi xalqaro tajribalarni Butunujahon turistlik tashkiloti (BTT) tadqiq qiladi va tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan

tavsiyalarni turizm to‘g‘risidagi qonun va xuquqiy-me’yoriy hujjatlr qabul qilgan davlatlarga ko‘rsatma - yo‘llanma sifatida taqdim qilib kelmoqda.

Sayohatlarning xavfsizligini ta’minlash haqidagi Hartiya 1985 yil BTT dagi Bosh Assambleyaning VI - sessiyasida qabul qilingan. Hartiya tarkibi 9 ta modda va turist kodeksi, turist kodeksi ham yana 9 ta moddadan iborat.

Hartiyaning IV moddasida turistlarning sog‘ligi va hayoti xavfsizligini ta’minlashda, ularning buyumlarining saqlanishi, har bir davlat xududlarida erkin harakat qilishida quyidagi talablar bajarilishi dunyodagi barcha davlatlarga tavsiya qilingan:

- davlatlarning ma’sulligi;
- turistlarga imkoniyatlarning yaratilishi - o‘z davlatida va chet ellik turistlar uchun sayohatlar davrida BMT, BTT, Xalqaro fukarolar aviatsiyasi tashkiloti, Xalkaro dengiz tashkiloti, Xalkaro bojxona hamkorligi Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlarining turizm to‘g‘risidagi, xalqaro turizm to‘g‘risidagi "Holatlar", "Dasturlar", "Huquqiy-me’yorlar" bilan tanishish, o‘rganish, foydalanish sharoitlarini yaratishlari;
- turistlarning bil imi va madaniyati o‘sishiga hamkorlik qilishi va yetib kelgan davlatlarning mahalliy aholisi bilan bo‘lgan muloqatlarda, aloqalarda o‘zaro tushunish, o‘zaro do‘stona muhitlarining yaratilishi;
- turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlash va buyumlarining saqlanish chora-tadbirlarini xalqaro qonunlarga mos holda ishlab chiqishi;
- gigiyena va sog‘liqni saqlash xizmatlariga murojaat qilish, yordam olishning barcha shart-sharoitlarini yaratishi, yuqumli kasalliklar va baxtsiz hodisalardan saqlanish haqida ogoxlantirish;
- turizmda buzg‘unchilik maqsadlaridagi qilingan har qanday xatti-harakatlarning oldini olish;

- turistlar va mahalliy aholini giyohvandlik moddalaridan noqonuniy foydalanish manbalaridan himoya qilish tizimlarini ishlab chiqishi kabi xalqaro turizm xuquqiy-me’yorlari ishlab chiqilgan.

BTT ning davlatlar o‘rtasida obrusini ko‘targan va konferensiyalar ishlab chiqilgan tavsiyalar, ko‘rsatmalar, yo‘llanmalarning aniqligi, joriy etishga qulayligi va tushunarli ekanligi bo‘yicha  BTT ning "Jahon turizmi bo‘yicha Manila deklaratsiyasi" ni qabul qilgan Turizm bo‘yicha butunjahon konferensiyasi qarorlari muhim ahamiyatga ega.

Konferensiya 1980 yil 27 sentyabrdan 20 oktyabrgacha Filippin davlatining poytaxti Manila shahrida bo‘lib o‘tdi. Konferensiyaga 107 davlatning delegatsiyalari va 91 delegatsiya kuzatuvchi sifatida qatnashdi.

Manila konferensiyasidagi eng muhim qaror va tavsiyalar xalqaro miqiyosida va davlatlarda turistlarning hayoti xavfsizligini, sog‘ligini ta’minlash va ularning buyumlarini saqlash, davlatlarda turistlarning erkin harakatlariga barcha shart-sharoitlarni yaratish natijasida xalqlar, elatlar va millatlarning dustona aloqalariga asoslar yaratiladi, millatlar
o‘rtasidagi urf-odatlarni o‘rganish, qiziqish natijasida bir-biriga yaqinlik qiluvchi davlatlararo madaniyat markazlari kelib chikadi.

Konferensiyaning tinchlik shiori - "Dunyoda tinchlikni, hamkorlik, hamjihatlikni saqlash, xalqlarning madaniy merosini rivojlantirishda turizmning hissasi" mavzusi qabul qilindi. Manila konferensiyasida 27- sentyabr "Butunjahon turizm kuni" deb belgilandi.

Xalqaro turizmda va davlatlar turizmida xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha aniq va jiddiy tavsiyalarni ishlab chiqqan xalqaro konferenssyalarning eng obrulisi, tan olingani BTT ning "Turizm bo‘yicha "Gaaga deklaratsiyasi" qabul qilinishi bo‘ldi.

Turizm bo‘yicha Gaaga deklaratsiyasi 10 ta tamoyilni qabul qildi va dunyo mamalakatlariga tarqatdi. Deklaratsiya jahonda turizmning rivojlanishida turizm xavfsizligi xalqaro miqiyosda va milliy davlatlar miqiyosida ta’minlanishi

shartligini ta’kidladi. Bunga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirishni tavsiya kiladi: BTT ning davlatlar o‘rtasida obrusini ko‘targan va konferensiyalar ishlab chiqilgan tavsiyalar, ko‘rsatmalar, yo‘llanmalarning aniqligi, joriy etishga qulayligi va tushunarli ekanligi bo‘yicha BTT ning "Jahon turizmi bo‘yicha Manila deklaratsiyasi" ni qabul qilgan Turizm bo‘yicha butunjahon konferensiyasi qarorlari muhim ahamiyatga ega.

Konferensiya 1980 yil 27 sentyabrdan 20 oktyabrgacha Filippin davlatining poytaxti Manila shahrida bo‘lib o‘tdi. Konferensiyaga 107 davlatning delegatsiyalari va 91 delegatsiya kuzatuvchi sifatida qatnashdi.

Manila konferensiyasidagi eng muhim qaror va tavsiyalar xalqaro miqyosida va davlatlarda turistlarning hayoti xavfsizligini, sog‘ligini ta’minlash va ularning buyumlarini saqlash, davlatlarda turistlarning erkin harakatlariga barcha shart-sharoitlarni yaratish natijasida xalqlar, elatlar va millatlarning dustona aloqalariga asoslar yaratiladi, millatlar o‘rtasidagi urf-odatlarni o‘rganish, qiziqish natijasida bir-biriga yaqinlik qiluvchi davlatlararo madaniyat markazlari kelib chiqadi.

Konferensiyaning tinchlik shiori - "Dunyoda tinchlikni, hamkorlik, hamjihatlikni saqlash, xalqlarning madaniy merosini rivojlantirishda turizmning hissasi" mavzusi qabul qilindi. Manila konferensiyasida 27- sentyabr "Butunjahon turizm kuni" deb belgilandi.

Xalqaro turizmda va davlatlar turizmida xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha aniq va jiddiy tavsiyalarni ishlab chiqqan xalqaro konferensiyalarning eng obrulisi, tan olingani BTT ning "Turizm bo‘yicha "Gaaga deklaratsiyasi" qabul qilinishi bo‘ldi.

Turizm bo‘yicha Gaaga deklaratsiyasi 10 ta tamoyilni qabul qildi va dunyo mamalakatlariga tarqatdi. Deklaratsiya jahonda turizmning rivojlanishida turizm xavfsizligi xalqaro miqiyosda va milliy davlatlar miqiyosida ta’minlanishi shartligini ta’kidladi. Bunga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirishni tavsiya kiladi: Gaaga deklaratsiyasida qabul qilingan yana bir muhim hujjat shundan iborat bo‘ldiki, terrorizm turizm va turistlik harakatlanishning rivojiga real xavf deb tan

olindi. Jahondagi davlatlarga terroristlarga har xil siyosiy sabablarni rukach qilib boshpana berish xollari jahon miqiyosida qoralanishi e'tirof etildi.

Xalqaro-turizm xavfsizligi va turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlashda BTT ning 2001 yil 30 sentyabr - 1 oktyabrda Yaponiyada (Ming yillikning Osaka deklaratsiyasi) o'tkazilgan konferensiyasi, MDH davlatlarining "Turizm sohasida hamkorlik" - Ashg'abat 23 dekabr 1993 yil, 29 oktyabr 1994 yil, 4 noyabr 1994 yil Osaka deklaratsiyasi, Turistlik faoliyatni tashkil qilish Yevropa Kengashi, 2 noyabr 1981 yil Nepaldagi Xalqaro mehmonxona qoidalari assotsiatsiyasi muhim qarorlar qabul qildi, tavsiyalar ishlab chiqib dunyo mamalakatlariga tarqatdi.

Shuningdek, "Afina konvensiyasi" turistlarning yuklarini tashishdagi xalqaro xuquq me'yorlarini ishlab chiqdi. Turagentliklar assotsiatsiyasining Butunjaxon federatsiyasi (UFTAA) va Butunjaxon mexmonxonalar assotsiatsiyasi (MGA) mexmonxonalarda turistlarni joylashtirish, ularning faol harakatlarini tashkil kilish, sogligi va xayoti xavfsizligini ta'minlashning xalqaro xuquqiy mezonlarini ishlab chiqdilar va bu xaqda BTT ga a'zo bo'lgan davlatlar o'z milliy turizm siyosatiga mos bo'lgan xuquqiy me'yorlarni qabul qilishini tavsiya qildi. Qayd qilish lozimki, BTT 1994 yilda o'z boshqaruvi tarkibida "Turistlik xizmatlar sifati" bo'yicha komitet tashkil qildi. Bu komitet xalqaro turizmda sayyohlarning xavfsizligi masalalariga ham javob beradi. Xuddi shu yili BTT dunyoning 73 mamlakatlarida "Sayyohlarni (turistlarni), turistlik ob'ektlarni himoya qilish va xavfsizligi" mavzusida xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirishning tashabbusi bilan 1995 yilning yozida Shvesiya davlatining Esterund shahrida "Sayohat davrida xavflarni kamaytirish va turizm xavfsizligini ta'minlash" mavzusida P xalqaro konferensiyasi o'tkazildi.

Gaaga deklaratsiyasida qabul qilingan yana bir muhim hujjat shundan iborat bo'ldiki, terrorizm turizm va turistlik harakatlanishning rivojiga real xavf deb tan olindi. Jahondagi davlatlarga terroristlarga har xil siyosiy sabablarni rukach qilib boshpana berish hollari jahon miqiyosida qoralanishi e'tirof etildi.

Xalqaro turizm xavfsizligi va turistlarning hayoti xavfsizligini ta’minlashda BTT ning 2001 yil 30 sentyabr - 1 oktyabrda Yaponiyada (Ming yillikning Osaka deklaratsiyasi) o‘tkazilgan konferensiyasi, MDH davlatlarining "Turizm sohasida hamkorlik" - Ashg‘abat 23 dekabr 1993 yil, 29 oktyabr 1994 yil, 4 noyabr 1994 yil Osaka deklaratsiyasi, Turistik faoliyatni tashkil qilish Yevropa Kengashi, 2 noyabr 1981 yil Nepaldagi Xalqaro mehmonxona qoidalari assotsiatsiyasi muhim qarorlar qabul qildi, tavsiyalar ishlab chiqib dunyo mamalakatlariga tarqatdi.

Shuningdek, "Afina konvensiyasi" turistlarning yuklarini tashishdagi xalqaro xuquq me’yorlarini ishlab chiqdi. Turagentliklar assotsiatsiyasining Butunjaxon federatsiyasi (UFTAA) va Butunjahon mehmonxonalar assotsiatsiyasi (MGA) mexmonxonalarda turistlarni joylashtirish, ularning faol harakatlarini tashkil qilish, sog‘ligi va xayoti xavfsizligini ta’minlashning xalqaro xuquqiy mezonlarini ishlab chiqdilar va bu haqda BTT ga a’zo bo‘lgan davlatlar o‘z milliy turizm siyosatiga mos bo‘lgan xuquqiy me’yorlarni qabul qilishini tavsiya qildi. Qayd qilish lozimki, BTT 1994 yilda o‘z boshqaruvi tarkibida "Turistik xizmatlar sifati" bo‘yicha komitet tashkil qildi. Bu komitet xalqaro turizmda sayyohlarning xavfsizligi masalalariga ham javob beradi. Xuddi shu yili BTT dunyoning 73 mamlakatlarida "Sayyohlarni (turistlarni), turistlik ob’ektlarni himoya qilish va xavfsizligi" mavzusida xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirishning tashabbusi bilan 1995 yil ning yozida Shvesiya davlatining Esterund shahrida "Sayohat davrida xavflarni kamaytirish va turizm xavfsizligini ta’minlash" mavzusida P xalqaro konferensiyasi o‘tkazildi.

Turizm mamalakatlarining 21% ida maxsus turizm politsiyasi tashkil qilingan bo‘lib, bu politsiya faqat turizm faoliyati bilan shug‘ullanadi. Turizm politsiyasi zimmasiga turizm resurslarini va atrof-muhitni muhofaza qilish, giyohvandlikga qarshi kurashish, mahalliy etnik guruhlarni himoya qilish vazifalari ham yuklatilgan.

Xalqaro turizm amaliyotidan ma’lum bo‘ladiki, ko‘pgina davlatlarning turizm boshqaruvi turistlarining dunyo davlatlariga, mintaqalariga borishi yoki

bormasliklari, xavfsizlikning holati, darajalari, ushbu davlatlarda turizm siyosati va himoya turizmi xaqida aniq tavsiyalar ishlab chiqadi va o‘z ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda tavsiyalar berib boradi.

Xavfsizlik xizmatining asosiy vazifasi - jinoyatni ko‘rib chiqish emas, uni oldini olishdir. Bu ayniqsa muhim, chunki bu xizmat xodimlari militsiya xodimlaridan farqli ularoq suroqqa tutish, tintuv o‘tkazish xuquqiga ega emaslar.

## XULOSA

Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, jahonda turli darajadagi 1300 dan ziyod davlat va xususiy aviakompaniya mavjud. 470 dan ortiq aviatashuvchi xalqaro havo qatnovlarini amalga oshirsa, shuning 250 ga yaqini muntazam xalqaro aviareyslarni yo‘lga qo‘ygan.

Prezidentimiz Islom Karimovning farmoniga binoan 22 yil avval tashkil qilingan “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi jiddiy raqobat sharoitida jahon aviabozorida o‘zining munosib o‘rnini egalladi. Xavfsizlik, qulaylik va yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish kompaniyaning o‘ziga xos tashrif qog‘oziga aylangan. O‘tgan yili Britaniyaning mustaqil SkyTrax reyting agentligi tomonidan milliy aviakompaniyamiz ko‘rsatayotgan xizmatlar sifatining auditi yakunlari ham buni yana bir bor tasdiqladi.

“Kompaniyamiz erishayotgan barcha yutuqlar – bu davlatimiz rahbarining doimiy e’tibor va g‘amxo‘rligi, texnologik parkni muntazam modernizatsiya qilish, G‘arbda va mamlakatimizda ishlab chiqarilgan laynerlarga texnik xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish, yer usti infratuzilmasini takomillashtirish, havo harakatini boshqarish tizimini tubdan isloh etish, mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan aniq maqsadli va serqirra ishlar samarasidir, – deydi “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi bosh direktorining birinchi o‘rinbosari Akmal Akbarov.

Milliy aviakompaniyaning ishlab chiqarish va moliyaviy ko‘rsatkichlari yil sayin o‘sib, ish samaradorligi ortib bormoqda. 2014 yilning birinchi yarmida 11,4 mingdan ziyod parvoz amalga oshirilib, 1,2 million nafardan ortiq yo‘lovchi, 20 ming tonnadan ko‘proq yuk, jumladan, pochta tashildi. Bunga aviabozor talablariga tez moslashish, yo‘nalishlar geografiyasini kengaytirish va parvozlar sonini ko‘paytirish evaziga erishilmoqda. Joriy yilda Singapurga havo qatnovi yo‘lga qo‘yildi, Termizdan Sankt-Peterburgga, Urganchdan Volgogradga aviayo‘nalishlar ochildi, parvozlar soni ko‘paydi. Masalan, Toshkent-Riga-Nyu-

York va Nyu-York-Riga-Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha reyslar haftada ikki marta – payshanba va yakshanba kunlari amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz turizm salohiyatini yuksaltirish maqsadida Frankfurt, Parij va Milan shahridan havo qatnovi Urganch shahri orqali amalga oshirilmoqda.

«O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi samolyotlariga chiqqan yo‘lovchilar qulay, shinam muhitga tushadi, alohida e’tirof va g‘amxo‘rlikdan bahramand bo‘ladi. Havo kemalari barcha zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Videoproyektorlar orqali badiiy, hujjatli filmlar, musiqiy kliplar, multfilmlar namoyish etiladi. “Boeing” samolyotlarida alohida monitorlar mavjud bo‘lib, yo‘lovchi o‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan dasturni tanlashi mumkin. Bu monitorlarda samolyot yo‘nalishi va parvoz haqidagi («air-show» tizimi) axborotni kuzatish mumkin. Uzoq masofaga uchadigan xalqaro yo‘nalishlarga parvoz chog‘ida birinchi va ikkinchi klass yo‘lovchilari «iPad» bort planshentidan bepul foydalanishi, maxsus «Sky Shop» jurnal-katalogida o‘ziga yoqqan mahsulotni harid qilishi mumkin.

O‘tgan davrda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Farg‘ona va Navoiy shaharlari aeroportlari modernizatsiya qilindi va bugungi kunda O‘zbekistonda 11 ta xalqaro aeroport faoliyat yuritmoqda. Milliy aviakompaniyamiz zamonaviy «Eyrbas» va «Boing» avialaynerlari bilan ta’minlangan. Ushbu samolyotlar Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Amerikaning 50 dan ortiq shaharlariga muntazam parvozlarni amalga oshirmoqda.

# TAKLIFLAR

Bitiruv malakaviy ishining natijalari va xulosalaridan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Davlatlararo va viloyatlararo xalqaro avialiniyalarni ko'paytirish;
- Aeroportlarda va samolyotlar bortida xizmat ko'rsatish darajasini yaxshilash;
- G'arbda va mamlakatimizda ishlab chiqargan laynerlarga texnik xizmat ko'rsatishni rivojlantirish;
- Havo harakatini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish;
- Yo'lovchi va yuk terminallari infratuzilmasini yanada takomillashtirish;
- "O'zbekiston Havo Yo'llari" MAKda ishlovchi xodimlarni malakasini oshirish maqsadida chet elga o'qitishni yo'lga qo'yish va boshqalar.

# Foydalanilgan adabtyotlar ro‘yxati


1. O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni. –T.: 1999 yil 20 avgust.

2. ««O‘zbekturizm» Milliy Kompaniyasini tashkil qilish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagi PF-480-sonli Farmoni.

3. «2005 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 15 apreldagi PF-2286-sonli Farmoni.

4. «O‘zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 30 iyundagi PF-2332-sonli Farmoni.

5. ««O‘zbekturizm» Milliy Kompaniyasining faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 20 oktyabr 484-sonli Qarori.

6. «Turizm faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida» O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 noyabrdagi 497-sonli Qarori.

7. «O‘zbekiston Respublikasida 2010 yilgacha bo‘lgan davrda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 21 maydagi PQ-640-sonli Qarori.

8. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lida. 4- tom. – T.:O‘zbekiston, 1996.– 285b.

9. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2010 yil, 27 yanvar.

10. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2010 yil, 30 yanvar.

11. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasi // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2010 yil, 13 noyabr.

12. Adilova Z.D, Sodiqov T. Xalqaro turizm biznesi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU. 2010.

13. Mamatqulov X.M. «Turizm infratuzilmasi» O‘quv qo‘llanma. –T.: «O‘zbekiston faylafuslar jamiyati» nashriyoti, 2011.

14. Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston faylafuslar jamiyati, 2011.

15. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Ibodullayev N.E., Amriddinova R.S. Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri.–S.: SamISI, 2010.

16. Tuxliyev I.S., Qudratov G‘.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya» nashriyoti. 2010.

17. Tuxliyev I.S., Safarov B. Turizm asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. –T.: «Yangi nashr» 2012.

18. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. “Turizm asoslari”. Darslik.-T. “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2014.

19. Tuxliyev I.S. va boshqalar. «O‘zbekistonda turizm xizmat bozorini rivojlantirishning ijtimoiy – iqtisodiy muammolari» nomli monografiya. –T.: «Iqtisodiyot» 2012 y

20. Hamidov O.X. «Transport servisini tashkil qilish» Uslubiy qo‘llanma. –T.: 2007. TDIU.

## INTERNET SAYTLARI:

1. www.google.uz /
2. www.stat.uz/
3. www.lex.uz/
4. www.uzbektourism.uz/